

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**  
**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI**  
**JAHON SIYOSATI VA TARIX FAKULTETI**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Mavzu: Roshaniylar harakati va uning afg'on madaniyatiga ta'siri**  
**5120300 – Tarix (mamlakatlar va mintaqalar bo'yicha)**

**Bajardi:** “Xorijiy mamlakatlar tarixi”  
ta'lim yo'nalishi bitiruvchi  
kurs talabasi Mamajonova Shoirra

\_\_\_\_\_  
(imzo)

**Ilmiy rahbar:** “Xorijiy mamlakatlar tarixi”  
kafedrasida dotsenti Z.M.Qodirov

\_\_\_\_\_  
(imzo)

**Ilmiy maslahatchi:** “Xorijiy mamlakatlar tarixi”  
kafedrasida katta o'qituvchisi,  
s.f.n. N.A.Abdullayev

\_\_\_\_\_  
(imzo)

**Toshkent – 2014**

## **MUNDARIJA**

<b>KIRISH</b>	<b>3</b>
<b>I bob. XVI asrda Afg'onistondagi madaniy hayot</b>	<b>9</b>
<b>I.1. XVI asrda Afg'onistondagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy ahvol</b>	<b>9</b>
<b>I.2. Boyazid Ansoriyning hayot yo'li va faoliyati</b>	<b>15</b>
<b>II bob. Roshaniylar harakatining ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotga ta'siri</b>	<b>24</b>
<b>II.1. Roshaniylar harakatining yirik namoyondalari</b>	<b>24</b>
<b>II.2. Xushholxon Xattakning Boburiylar imperiyasi bilan munosabatlari</b>	<b>35</b>
<b>XULOSA</b>	<b>53</b>
<b>ADABIYOTLAR RO'YXATI</b>	<b>56</b>
<b>ILOVALAR</b>	<b>60</b>

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** “Tinchlik va barqarorlik, eng avvalo, afgʻon xalqining orzusi. Chunki bu xalq yigirma yillik urush, azob-uqubat va muhtojlikni boshdan kechirmoqda. Bu xalq oʻzining butun tarixi va mislsiz bardoshi bilan chinakam hurmat va hamdardlik uygʻotadi. Fuqarolar urushi tufayli vujudga kelgan beqaror vaziyat allaqachon Afgʻoniston chegaralarini oshib oʻtib, mintaqadan ancha narida ham oʻzining salbiy taʼsirini koʻrsatmoqda. Bugun Afgʻoniston va uning atrofida yuz berayotgan xalqaro terrorizm muammolari ham, narkotik moddalarni tarqatish va qurol-yarogʻ savdosi muammolari ham, tobora tahdidli tus olayotgan islomni radikallashtirish jarayonlari ham jahon jamoatchiligini tashvishga solmay qolmaydi. Bugungi Afgʻonistonda sodir boʻlayotgan voqealarni kuzatib turgan har bir kishini bu mamlakat aholisi, uni vayronagarchilik va muhtojlikka mahkum etgan, iqtisodiyot va kishilar hayotini oʻnlab yillar orqaga uloqtirib tashlagan urush va qarama-qarshilik tufayli Vatanidan judo boʻlgan barcha millat va elat vakillarini tashvishga solmay qoʻymaydi.”<sup>1</sup> Barchamizga maʼlumki, madaniyat, ilm-fan har bir xalqning yashash tarzi, urf-odatlari, qadriyatlarini necha ming yillik tarixga ega ekanligini koʻrsatuvchi oynadir. Biz Afgʻoniston tarixini sinchiklab oʻrganar ekanmiz, bu hududda oʻziga xos madaniyat oʻchogʻi shakllanganligini roshaniylar harakati misolida koʻrishimiz mumkin. 1978-yildan buyon davom etib kelayotgan fuqarolar urushi natijasida deyarli xarobaga aylangan Afgʻoniston hududida ham bir necha asrlar muqaddam butun mamlakat hududini qamrab olgan madaniy inqilobga guvoh boʻlamiz. Bu harakat tarixda “Roshaniylar harakati” deb nom olgan. Bu harakatning afgʻon madaniy hayotiga taʼsiri nihoyatda beqiyosdir. Bu harakat bejizga “Roshaniy” yaʼni yorugʻlik deb atalmagan. Roshaniylar harakati namoyondalari maʼrifat orqali oʻz xalqining ozodligiga erishmoqchi, ilm-fan, madaniyat va maʼrifat nurlari bilan qaysidir maʼnoda jabr zulmdan ezilgan afgʻon xalqining qalbiga ziyo olib kirmoqchi boʻldilar. Shuning uchun ham ular oʻz

---

<sup>1</sup> I.A. Karimov. Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. Afgʻoniston boʻyicha “6+2” guruhi Toshkent uchrashuvi ochilishi marosimida soʻzlangan nutq. Toshkent, 2000 – yil. 32-bet.

harakatlarini mana shunday nomladilar. Roshaniylar afg'on madaniy hayotining shakllanishiga o'zlarining katta hissalarini qo'shdilar. Ular adabiyot orqali xalqni ajnabiy hukmdorlarga qarshi bosh ko'tarishga, o'z mamlakatlarini ulardan himoya qilishga da'vat etdilar. Hozirgi Afg'onistondagi siyosiy vaziyatni hisobga olib fikr yurituvchilar ham uchraydi. Ya'ni bu davlatda hech qanday madaniyat mavjud emas, bu davlat o'ta qoloq va yo'q bo'lib ketish arafasida. Ammo ro'shaniylar harakatini sinchiklab o'rganar ekanmiz, uning afg'on madaniyatiga beqiyos ta'sirini ko'rishimiz mumkin. Roshaniylar harakati Afg'oniston tarixini o'rganishda eng kam murojaat qilingan, shuningdek kam tadqiq etilgan mavzulardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham bu harakat namoyondalarining faoliyatlarini, ular yaratgan asarlarni o'rganish muhim o'rin egallaydi. Mavzuning dolzarbligi shundaki, hozirgi Afg'oniston hududidagi notinch, ziddiyatli vaziyatni hisobga oladigan bo'lsak bu mintaqada ilm – fan, ta'lim sohasi ancha zaiflashib qolganligini ko'rishimiz mumkin. Lekin bundan Afg'onistonda madaniyat yo'q bo'lib ketadi degan tasavvur hosil qilish noo'rindir. Hozirgi davrda ham aksariyat afg'on yozuvchi va shoirlari roshaniylar ta'siri ostida ijod qilayotganini ko'rishimiz mumkin. Shuning uchun ham roshaniylar harakati va tarixini o'rganish dolzarb ahamiyatga egadir.

**Ishning maqsad va vazifasi.** Ishning bosh maqsadi, avvalambor bu mavzu bo'yicha yaratilgan adabiyotlar vositasida mavzuni tarixiy, tahliliy nuqtayi nazardan bir tomonlama yondoshuvdan chekingan holda xolisona yoritishdir. Ishning asosiy vazifasi quyidagilardan iborat:

1. XVI – XVIII asrlardagi Afg'onistonning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy hayoti bilan tanishish;
2. Roshaniylarning harakatiga turtki bo'lgan sabablarni o'rganish;
3. Harakatning afg'on jamiyatiga qay darajada ta'sir ko'rsata olganligini o'rganish;
4. Roshaniylar ilgari surgan g'oyalar bilan tanishish;
5. Roshaniylar maktabining yirik namoyondalari va ularning faoliyatlari bilan tanishish;

6. Ilmiy adabiyotlarga tayangan holda harakatning mazmun – mohiyatini ochib berish;
7. Roshaniylarning nafaqat ajnabiy hukmdorlarga qarshi olib borgan kurashlarini, balki ma’rifatparvarlik faoliyatlarini ham keng yoritib berish.
8. Bu harakat vakillari borasida bildirilgan fikrlarni tahlil qilish;
9. Roshaniylar harakatining hozirgi zamonaviy Afg’onistonning ta’lim tizimiga ta’sirini ko’rsatish.

Asrlar davomida turli xorijiy davlatlar istibdodiga tushsada o’z mustaqilligini, erkini qo’ldan boy bermay kelayotgan Afg’oniston uchun, uning tarixi uchun bu harakat naqadar muhim ekanligi mavzuni o’rganish jarayonida yaqqol ko’zga tashlanadi. Zolimlar istibdodiga qarshi kurashish hatto Afg’oniston davlati vujudga kelmasidan oldinroq boshlanganini hisobga oladigan bo’lsak, ular butun bir davlat bo’lmay turib o’zliklarini anglab bo’lgan edilar. Ushbu bitiruv malakviy ishini yoritishda yuqorida tilga olingan maqsad va vazifalarga tayanildi.

**Mavzuning o’rganilganlik darajasi.** Roshaniylar harakati tarixiga bag’ishlangan alohida adabiyot va tadqiqot ishlari kam. Lekin bu mavzuni umuman e’tibordan chetda qolgan deb bo’lmaydi. Roshaniylar harakatiga ozmi-ko’pmi rus, ingliz, afg’on va hind olimlari murojaat qilishgan. Bu mavzu bo’yicha eng to’liq asar rus olimi M.G.Aslanovga tegishli. M.G.Aslanov roshaniylar harakatiga oid “Roshaniylar xalq harakati va uning XVI-XVII asr afg’on madaniyatiga ta’siri”<sup>1</sup> nomli ilmiy asar yaratgan. Bu ilmiy asardan harakat sabablari, o’sha davrda Afg’onistonda mavjud bo’lgan vaziyat, harakatning natijalari, yutuq va kamchilikalari, harakatning yetuk siymolari haqidagi ma’lumotlar o’rin olgan. Uning fikricha Boyazid Ansoriy va tarafdorlarining maqsadi nafaqat o’z xalqining mustaqilligi uchun kurash, balki odamlar orasida mulkiy tenglikni o’rnatish bo’lgan. M.G.Aslanov bundan tashqari “Afg’oniston adabiyoti”<sup>2</sup> hamda “Afg’onlar: til va ma’naviy madaniyat”<sup>1</sup> nomli asarlarida ham

---

<sup>1</sup> Асланов М.Г. Народное движение рошани и его отражение в афганской литературе XVI – XVII в.в. Советское востоковедение. М., 1955. Стр.192.

<sup>2</sup> Асланов М.Г. Афганская литература. БСЭ. 2 – е изд. М., 1950. Стр. 155.

bu mavzuga murojaat qilgan. Yana birr us olimi Reysner I.M. o'zining "Afg'onlarda feodalizm va davlat ta'limining rivojlanishi"<sup>2</sup> nomli asarida roshaniylar harakatiga to'xtalib o'tgan va ularning faoliyati hamda roshaniylarning XVIII asrdagi izdoshlari haqida qimmatli ma'lumotlarni keltirib o'tgan. Bundan tashqari Yu.V.Gankovskiy<sup>3</sup>, V.M.Masson, V.A.Romodina<sup>4</sup> va boshqa rus olimlari ham o'z asarlarida roshaniylar harakati mavzusiga murojaat qilishgan. Rus olimlari Gerasimova A.S. va Girs G.F. hammuallifligida yaratilgan "Afg'oniston adabiyoti"<sup>5</sup> nomli ilmiy asarda roshaniylarning adabiy faoliyati juda keng va aniq yoritib berilgan. Bu asarda roshaniy shoirlarning ijodidan tashqari XVIII asrda yashab ijod etgan, roshaniylar adabiyot maktabining yetuk shoiri va harbiy yo'l boshchisi Xushholxon Xattak haqida ham ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Ingliz olimlaridan J.Leyden<sup>6</sup> va H.G.Ravertylar<sup>7</sup> ham roshaniylar harakatini o'rganish bo'yicha turli asarlar va ilmiy maqolalar yozishgan. H.G.Raverty o'zining "Gulshani rox"<sup>8</sup> (Tog' guli) nomli majmuasida roshaniylarning yirik namoyondasi Mirzaxon Ansoriyning noyob qo'lyozma devonidan 19ta she'rni nashr qilgan. Bu mavzu o'zbek olimlarining ham e'tiboridan chetda qolmagan. Filologiya fanlari doktori, professor Mannonov A.M. bu mavzuga doir "Roshaniylar adabiyoti"<sup>9</sup>, "Roshaniylar she'riyatining asosiy yo'nalishlari"<sup>10</sup>, "Boyazid Ansoriyning Xayrul-bayoni"<sup>11</sup>, "XVI – XVIII asrlarda pushtu tilidagi roshaniylar adabiyot maktabi"<sup>12</sup> nomli asarlar yozgan. Bu ilmiy asarlarda roshaniylarning adabiy faoliyati to'liq va keng yoritib berilgan. Roshaniylar harakati afg'onistonlik,

---

<sup>1</sup> Асланов М.Г. Афганцы, язык и духовная культура. Народы Передней Азии. М., 1957. Стр.170.

<sup>2</sup> Рейснер И.М. Развитие феодализма и образование государство у афганцев. М., 1954. Стр. 328.

<sup>3</sup> Ганковский Ю.В. История Афганистана с древнейших времен до наших дней. М., 1982. Стр.368.

<sup>4</sup> Массон В.М. и Ромодина В.А. История Афганистана. Т 2. М., 1965. Стр. 290.

<sup>5</sup> Герасимова А.Г. и Гирс Г.Ф. Литература Афганистана. Краткий очерк. М., 1963. Стр.194.

<sup>6</sup> Leyden J. On the roshanian sect and its founder Bayazid Ansari. Asiatic researches. London, 1812. P. 218.

<sup>7</sup> Raverty H.G. Selections from the poetry of the Afghans from the 16<sup>th</sup> to the 19<sup>th</sup> century. London, 1868. P. 190.

<sup>8</sup> Raverty H.G. Gulshani rox. Советское востоковедение. М., 1955. Стр. 78.

<sup>9</sup> Маннанов А.М. Рошанийская литература. Ташкент, 2006. Стр. 230.

<sup>10</sup> Маннанов А.М. Основные жанры рошанийской поэзии. Ташкент, 1986. Стр. 80.

<sup>11</sup> Маннанов А.М. Хайр уль – баян Баязида Ансари. Труды ТашГУ, 1981. Стр. 165.

<sup>12</sup> Маннанов А.М. Рошанийская литературная школа на пашту в XVI – XVIII в.в. Ташкент, 1996. Стр. 53.

pokistonlik hamda hindistonlik olimlar tomonidan ham keng o'rganilgan. Bunga misol tariqasida Abdulhay Habibiy<sup>1</sup>, Muhammad Shafi<sup>2</sup>, A.A.S.Rizvi<sup>3</sup>, M.M.Kaleem<sup>4</sup>, Dharma Bhanu<sup>5</sup> singari yozuvchi va tarixchilarning asarlarini misol keltirish mumkin.

**Tadqiqot obyekti va predmeti.** Mavzuning tadqiqot obyekti bu roshaniylar harakati va uning afg'on madaniyatiga ko'rsatgan ta'siri hisoblanadi. Roshaniylar harakati asosan ma'rifatparvarlik faoliyatidan iborat bo'lsada uni tarixiy nuqtayi nazardan yondoshib o'rganish mavzuning tadqiqot predmeti hisoblanadi. Roshaniylar harakatiga doir adabiyotlarni sinchiklab o'rganish, ular yaratgan asarlarning mohiyati bilan tanishish, ular ilgari surgan g'oyalar afg'on jamiyati tomonidan qay tarzda qabul qilinganini o'rganish ham shular jumlasiga kiradi.

**Ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati.** Bu mavzu to'liq o'rganilmagan va mavjud ma'lumotlar ham bir-biriga zid. Afg'oniston tarixiga doir adabiyotlar bilan tanishib chiqar ekanmiz ularning aksariyat qismi XVIII asrdan boshlanuvchi voqea va hodisalarni qamrab oladi. Chunki mana shu paytdan Afg'oniston davlati tashkil topgan. Roshaniylar harakati esa XVI-XVII asrlarda bo'lib o'tgan diniy-ma'rifatparvarlik harakati hisoblanadi. Mavzuning ilmiy yangiligi shundaki, mazkur bitiruv malakaviy ishida roshaniylar harakati mavzusiga ilk marotaba chuqur yondoshildi va roshaniylar harakatining yirik namoyondalari faoliyati atroflicha yoritib berildi. Ishning amaliy ahamiyati shundan iboratki, bu mavzu o'zbek tilida birinchi marotaba bitiruv malakaviy ishi sifatida o'rganilmoqda va keng jamoatchilikka taqdim etilmoqda. Ushbu bitiruv malakaviy ishida nafaqat roshaniylar harakati va uning yirik namoyondalari, balki ularning ijodlarini keyinchalik davom ettirgan ijodkorlar va milliy qahramonlar haqida ham so'z boradi.

---

<sup>1</sup> A. Habibiy. History of styles in Pashto language. London, 1940-1941. P. 215.

<sup>2</sup> Muhammad Shafi. Bayazid Ansari. London, 1960. P.89.

<sup>3</sup> Rizvi S.A.A. Rawshaniyya movement. London, 1967. P. 198.

<sup>4</sup> Kaleem M.M. Pushtu literature. The cultural heritage of Pakistan. Karachi, 1955. P. 255.

<sup>5</sup> Dharma Bhanu. The roushania movement and the Mughals. Islamic culture. Haiderabad, 1952. P. 90.

**Ishning nazariy metodologik asoslari.** Ushbu mavzuni o'rganish jarayonida ko'plab adabiyotlar bilan tanishib chiqdim. Ularning aksariyat qismi Sobiq Sovet sharqshunoslari tomonidan yaratilganini inobatga oladigan bo'lsak, bir yoqlama yondoshuvni ko'rishimiz mumkin. Masalan, bu asarlarning deyarli barchasida boburiylar imperiyasi "Buyuk mo'g'ullar davlati" deb atalgan. Bu aynan o'sha davrdagi yondoshuvdan kelib chiqib ishlatilgan ibora hisoblanadi. Bitiruv malakaviy ishining nazariy metodologik asoslari deyilganda mavzuni o'rganib chiqish jarayonida bir yoqlama yondoshishdan voz kechish hamda o'rganilayotgan xalqning dunyoqarashi, madaniyati, hayot tarzidan kelib chiqqan holda fikr yuritish taqozo eilishi tushuniladi.

**Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi.** Ushbu bitiruv malakaviy ishi "Roshaniylar harakati va uning afg'on madaniyatiga ta'siri" deb nomlanadi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, 2 bob, 4 band, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat.

# **I bob. XVI asrda Afg'onistondagi ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayot**

## **I.1. XVI asrda Afg'onistondagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy ahvol**

1504-yilda Farg'ona hukmdori Umarshayxning o'g'li, temuriylar naslidan bo'lgan Zahiriddin Muhammad Bobur Kobulni bosib oladi. U keyinchalik boburiylar sulolasiga asos soldi. Mamlakat hududining katta qismi, shuningdek afg'on qabilalariga tegishli bo'lgan serhosil yerlar bu sulola hukmronlari qo'l ostiga o'tadi. Z.M. Bobur o'zining "Boburnoma" asarida Afg'oniston va afg'onlar, ularning yashash sharoiti, urf- odatlari va an'analari haqida qimmatli ma'lumotlarni beradi. Shuning uchun bu asar Afg'oniston tarixini o'rganishda muhim manbalardan biri hisoblanadi. "Boburnoma" asarida Afg'onistonning bir qancha shaharlari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Bobur asosan Kobulga ko'proq ta'rif beradi. Chunki bu shahar unga juda ham yoqqan edi. Shuningdek, Bobur davlat boshqaruviga oid "Mubayyin" asarini ham yozadi<sup>1</sup>.

Boburning afg'on qabilalariga nisbatan yuritgan siyosati o'zining keyingi yurishlariga o'ziga xos tayyorgarlik bosqichini o'tadi. Xususan, Hindistonga yurishida bu omil muhim rol o'ynagan. Unga bo'ysunmagan va soliq to'lamagan qabilalar qattiq bosim ostida qoldi. Ko'pchilik qabilalar, masalan yusufzoilar boburiylar bilan kurashda Hindistondan yordam olishga harakat qilgan. Chunki bu vaqtdagi Hindiston hukmdorining kelib chiqishi afg'on qabilalaridan edi.<sup>2</sup> 1525-yildagi Panipat jangidan so'ng Ibrohim Lodiy o'ldirilib, Hindiston qo'lga kiritiladi. Shundan so'ng boburiylar hukmronligi Bengaliyagacha bo'lgan hududlarda amalga oshirila boshlandi. 1530-yilda Bobur Hindistonda vafot etdi

---

<sup>1</sup> Ганковский. Ю.В. История Афганистана с древнейших времен до наших дней. Москва, 1982. Стр.104.

<sup>2</sup> Ганковский. Ю.В. История Афганистана с древнейших времен до наших дней. Москва, 1982. Стр.105.

va uning vasiyatiga binoan Kobulga dafn etildi.<sup>1</sup> Boburiylar imperiyasi tarkibiga bu vaqtda Afg'onistonning Nangarxor, Seiston, Kobul, Hirot, G'azna va Qandahor viloyatlari kirgan edi. Qandahor viloyati va shahri muhim savdo-karvon yo'lida joylashgan edi. Shu sababli ko'p yillar davomida bu hududlar uchun safaviylar va boburiylar kurash olib borganlar.<sup>2</sup> XVI asrning birinchi yarmi - XVII asrlarda Qandahor qo'ldan qo'lga o'tib, ko'plab janglarga sabab bo'ldi. 1649-yilda safaviylar hukmdori Abbos II bu shaharni bosib oladi. Qandahor viloyatida yashovchi gilzoy va abdali qabilalari safaviylar bilan uzoq muddat kurashdilar. Ularning boshliqlarining ayrimlari safaviylarga, ba'zilari boburiylarga qo'shiladilar. Hirotida yashovchi abdali qabilalari boburiylar yordamida Hindistonga kelib joylashdilar. Safaviylarga qarashli hududlarda yashovchi afg'on qabilalari noiloj ularga bo'ysunib hayot kechirganlar.

Afg'on qabilalari orasida tinchlik o'rnatish uchun safaviylar ularning boshliqlariga ko'plab imtiyozlar beradi. Katta-katta yer-hududlar taqdim etilib, ko'pchilik qo'zg'olonlarning oldi olinadi. Masalan, Abbos II (1587-1629 y.y) 1597-yilda popolzoylar urug'idan chiqqan Malik Sadoga "afg'onlar rahbari" unvonini beradi va Qandahor uchun kurashga tortadi. Malik Sadoning qo'shinlari Hirotidan Qandahorgacha bo'lgan hududlarni himoya qiladigan bo'ldi. Malik Sadoning barcha qarindoshlari qabilalar orasida katta obro'ga ega bo'lib oladilar.<sup>3</sup> Bu davrda afg'on qabilalari turli hukmdorlar uchun turli xil qabilalar bilan uzoq vaqt kurash olib bordilar. Ular asosan chorvachilik uchun yaylov talashib, boshqa qabilalar bilan jangga kirar edilar. Shunga qaramay afg'onlar o'zlarining tashqi qabilaviy harbiy birlashish an'analarini saqlab qoldilar.<sup>4</sup> Ular bu davrda ham o'z urf-odatlaridan chetlashmadilar. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, bir vaqtning o'zida turli hududlarda qabilalar birlashmalari yuzaga kelib, ular o'zaro afg'on bo'lmagan hukmdorlarga qarshi kurash olib bordilar. Bu kurashlar afg'onlarga qarashli hududlarda olib borildi.

---

<sup>1</sup> Uilyam Erskin. Bobur Hindistonda. Toshkent, 2003. 70-bet.

<sup>2</sup> Uilyam Erskin. Bobur Hindistonda. Toshkent, 2003. 72-bet.

<sup>3</sup> Leyden J. On the Roshenian sect and its founder Bayezid Ansari. Asiatic Researches. London, 1812. P.65.

<sup>4</sup> Асланов М.Г. Афганцы: язык и духовная культура. Москва, 1957. Стр.55.

Patriarxal - urug'chilik tarzida yashovchi afg'onlar bu davrda faqatgina vassallik asosida o'z hududlarini saqlab qoldilar. Yerlar va yaylovlarni o'zlashtirish jarayonida asta - sekinlik bilan afg'on qabilalari birlasha bordilar. Ularning turli xil hududiy - qabilaviy birlashmalari vujudga kelgan edi. Bu vaqtda qabilalar orasida yerlar to'g'ri taqsimlanmagan. Shu sababli qabilalar tez - tez bir - birlari bilan kurash olib borganlar. Ba'zi qabila boshliqlari qon to'kilishlarning oldini olib, do'stlik aloqalarini o'rnatishga harakat qilganlar.<sup>1</sup> Kobul, Qandahor va Peshovarning katta qismini egallab olgan afg'onlar bu hududlarni qabilalararo taqsimlab oladilar. Yerlarning kata qismi janglarda ishtirok etgan afg'on qabila boshliqlari va ularning qarindoshlariga berildi. Qolgan qabilalar esa, barcha masalalarda ularga murojaat etishga majbur bo'lib qoldilar. Shu tarzda afg'on jamiyatida feodal yer egaligi davom etib bordi.<sup>2</sup> Mulkiy tengsizlik, shuningdek yer - suvning taqsimlanishi natijasida qabilalar ikki guruhga, chorvachilik va dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi guruhlarga ajralib qoldi. Gilzoy, abdali, momand, ko'kar, muhammadzoy kabi qabilalar asosiy dehqonchilik vohalarini egallab, bu vohalarda dehqonchilik, shuningdek sug'orish madaniyati rivojiga kata hissa qo'shdilar. Kobul, Hirot, G'azna shaharlarida yashovchi afg'on qabilalari hunarmandchilik va savdo ishlari bilan shug'ullanganlar.<sup>3</sup> Boshqa qabilalarda feodal an'analar qiyinchilik bilan rivojlandi. Afg'on jamiyatida tovar- savdo munosabatlari, shuningdek sudxo'rlarning paydo bo'lishi natijasida ilk bor musulmon ruhoniylari yerlarni xususiy qilib oldilar. Shundan so'ng patriarxal - urug'chilik an'analari afg'on jamiyatida gullab yashnadi.<sup>4</sup>

Afg'on qabilalari feodallashuv jarayonida asta- sekinlik bilan o'zlarining ijtimoiy holatlarini ham o'zgartirib bordilar. Endilikda qullar ekspluatatsiyasi deyarli tugatildi va ozod ijtimoiy qatlamga aylana bordi. Feodallashuv jarayoni turli qabilalarda turlicha kechdi. Chorvachilik bilan shug'ullanuvchi qabilalar,

---

<sup>1</sup> Ганковский. Ю.В. История Афганистана с древнейших времен до наших дней. Москва, 1982. Стр.108.

<sup>2</sup> Асланов М.Г. Народное движение рошани и его отражение в афганской литературе 16-17 в.в. «Советское востоковедение». М., 1955. Стр.70.

<sup>3</sup> Массон В.М., Ромодин В.А. История Афганистана. 2е том. Москва, 1965. Стр.162.

<sup>4</sup> Ганковский. Ю.В. История Афганистана с древнейших времен до наших дней. Москва, 1982. Стр.110.

masalan vaziriylarda bu kabi munosabatlar XVI - XVIII asrlarda boshlang'ich holatda edi, xattakiylar, habibiylar, muhammadzoylarda esa ancha tez rivojlandi.<sup>1</sup> Patriarxal munosabatlarning shakllanishi ham yirik feodallarning oddiy aholiga nisbatan munosabatlarini o'zgartira olmadi. Yirik musulmon ruhoniylari va katta yer egalarining qishloq aholisiga qilgan zug'umlari natijasida XVI asrning boshlarida sharqiy hududlarda antifeodal harakatlar boshlanadi. Bunday harakatlarning biriga Boyazid Ansoriy boshchilik qildi va bu harakat "Roshaniylar harakati" deb nomlandi.

Roshaniylar harakati - boburiylar davlatidagi afg'onlarning diniy qarshilik harakati. Uni musulmonlarning roshaniy mazhabi vakillari olib borganlar. Mazhab nomi uning asoschisi Boyazid Ansoriyning laqabi-Pir roshandan olingan. Katta qiyinchiliklar bilan bostirilgan roshaniylar harakati boburiylarning harbiy qudratiga putur yetkazgan, afg'on davlati taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatgan va afg'onlarning etnik jihatdan birlashuviga yordam bergan.<sup>2</sup> Roshaniylar harakati nafaqat chet ellik yer egalariga balki izchil islom tarafdorlari bo'lgan xonlar, ruhoniylarga qarshi qaratilgan edi. Ular o'sha davr afg'on jamiyatining feodal an'alariga butunlay qarshi edilar. Roshaniylar boburiylarga qarshi kurashib, ulardan norozi bo'lgan qabilalar bilan birlasha boshlaydilar. Birinchi navbatda Pokistonning shimoli-g'arbiy hududlarini egallab olgan roshaniylar o'zlarining ko'p yillik mashaqqatli kurashlarida Afg'oniston hududlarida katta muvaffaqiyatlarga erishadilar. Ular Nangarxor, G'azna, Kobul va bir qancha hududlarni egallab olib, Xaybor o'tish yo'lini to'sib qo'yadilar.<sup>3</sup> Shundan so'ng savdo aloqalariga putur yetib, boburiy hukmdorlar uchun qiyinchiliklar vujudga keltirildi. Roshaniylar egallab olgan hududlarda hamsoyalik an'analari va qullarning ozod etilishi kuchaytirildi. Feodallar va ruhoniylarga tegishli bo'lgan yerlar qabilalarga bo'lib berildi. Ularning hammasi oltidan bir miqdorda bosh rahbarga soliq to'laydigan bo'ldilar.<sup>4</sup> Roshaniylar o'zlariga qattiq qarshilik ko'rsatganlarni olovda kuydirib yuborganlar.

---

<sup>1</sup> Массон В.М., Ромодин В.А. История Афганистана. 2е том. Москва, 1965. Стр.164.

<sup>2</sup> "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi". Toshkent, 2004. 219 – bet.

<sup>3</sup> Ганковский. Ю.В. История Афганистана с древнейших времен до наших дней. Москва, 1982. Стр.110.

<sup>4</sup> J. Leyden. On the Rosheniah sect and its founder Bayazid Ansari. London, 1812. P.68.

Haliliylar, muhammadzoilar roshaniylar harakatida faol qatnashdilar. Ammo bu qabilalar orasida chuqur ziddiyatlar paydo bo'ldi. Bir tarafdin qabila boshliqlari, bir tarafdin boburiy hukmdorlar ularni ziddiyatlar girdobiga tortar edi. Roshaniylar harakati tarkibida ko'pchilik qabilalar bo'lgan. Qabila boshliqlarining maqsadlari ham turlicha edi. Biri ko'proq serhosil yerlar va yaylovlarni qo'lga kiritishni istasa, biri boburiy hukmdorlardan ko'proq yer - mulk bilan birgalikda hokimiyatni ham olib qo'yishni xohlar edi.<sup>1</sup> Boburiylar roshaniylar harakatiga qarshi katta armiya safarbar etadi. Sinfii kurashlar va ularning boburiy hukmdorlarga qarshi qaratilganligi roshaniylar harakatiga qo'l keladi. Bundan tashqari roshaniylarning eng muhim iqtisodii, harbiy - strategik hududlarni egallab olishi boburiylarga katta qiyinchiliklar tug'dirdi. Shu sababli boburiy hukmdorlar uzoq vaqt mobaynida roshaniylarni mag'lub eta olmadilar. Boshida harakatga Boyazid Ansoriyning o'zi boshchilik qiladi. Keyinchalik o'g'illari va nabiralari uning ishini davom ettiradilar. Boyazid Ansoriyning vafotidan so'ng (1585-yil) bu harakatga uning o'g'li, keyinchalik esa nabiralari boshchilik qilib kurashni davom ettirishgan. Boyazid Ansoriyning uch o'g'li - Umar, Xayriddin va Nuriddin o'z hayotlarini mana shu kurashlarga bag'ishladilar va roshaniylarning dushmanlari bilan bo'lgan kurashlarda o'ldirildilar. Boyazidning to'rtinchi o'g'li Jaloliddin bu harakatni boshqarishni o'ziga meros qilib oladi va o'zini "afg'onlar podshohi" deb e'lon qiladi. U keyinchalik boburiylarga asir tushadi va Akbarshoh saroyiga yetkaziladi. Ammo u qochib ketishga muvaffaq bo'ladi.<sup>2</sup>

1600-yilda Jaloliddin G'azna qamalida asirga tushib qoladi. O'sha vaqtda harakatga Jaloliddinning o'g'li Axdad boshchilik qiladi. Axdad 1626-yilda jang paytida o'ldiriladi. Uning vafotidan so'ng harakatga boshchilik qilish o'g'li va vorisi Abdul Karimga o'tadi. Boburiylar Abdul Karimni ayyorlik bilan Peshovarga chaqirtiradilar va u asirlikda vafot etadi (yoki zaharlangan).<sup>3</sup> Roshaniylarning so'nggi boshlig'i Jaloliddinning boshqa o'g'li Karimdod 1638 – yilda boburiylar

---

<sup>1</sup> J. Leyden. On the Rosheniah sect and its founder Bayazid Ansari. London, 1812. P.69.

<sup>2</sup> Рейснер И.М. Развитие феодализма и образование государство у афганцев. Москва, 1954. Стр.290.

<sup>3</sup> Bu ma'lumot M.G. Aslanovning "Sinfii kurashlarning 16 – 17 – asr afg'on adabiyotiga ta'siri" nomli ilmiy maqolasidan olingan. M., 23-bet.

qo'liga tushadi. Roshaniylar o'rtasidagi boshboshdoqliklar ham harakatning mag'lubiyatiga sabab bo'ldi. Afzalxon Xattakning ona tomondan bobosi, orakzoy qabilasidan bo'lgan Malik Tor dastlab roshaniylar harakatiga qo'shiladi va ularni qo'llab – quvvatlaydi. Ammo keyinchalik o'z fikrini o'zgartiradi va boburiylar tarafga o'tib ketadi. Malik Tor Axdad roshaniylar bilan bo'lgan kurashida ularga shunday murojaat qiladi: “Men sening har qanday buyrug'ingni bajarishga tayyorman, ammo mening uyimni va hududimni boshqarish huquqini bermayman.”<sup>1</sup> Bu so'zlardan shuni tushunish mumkinki, roshaniylar yuqori tabaqa vakillarining qabilaviy yerlarini tortib olib, o'zaro taqsimlab olishgan.

Faqat XVII asrning 80-yillaridagina roshaniylar harakati kuchsizlantirildi. Ko'pchilik qabila boshliqlari va yirik feodallar bu harakatga birgalikda qaqshatqich zarba beradilar. Bu harakatning oxirgi rahbari Karimdod Boyazid Ansoriyning nabirasi, 1638-yilda halok bo'ldi. Bu harakat tarkibiga ko'pchilik qabilalar kirgan edi. Keyinchalik katta yerlar va to'lovlar evaziga ko'pchilik qabila xonlari boburiylar tarafga o'tib ketadi. Ba'zi qabilalar orasida, masalan yusufzoilar qabila a'zolari va qullar o'rtasidagi erkin munosabatlardan norozilik bildira boshlaydilar.<sup>2</sup> Ular qullar ekspluatatsiyasini davom ettirishdan manfaatdor edilar. Bundan tashqari, afg'on jamiyatining iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy rivojida feodal an'analarning kuchliligi ham roshaniylarga qiyinchilik tug'dirdi. Roshaniylar harakatining mag'lubiyatiga qaramasdan, uning afg'on jamiyatiga ta'siri uzoq vaqt sezilib turdi. Masalan, xalqning yoppasiga feodal ekspluatatorlarga qarshi kurashi va afg'on jamiyatida patriarxal - urug'chilik an'analarning gullab yashnashida roshaniylar harakatining xizmati katta edi. Afg'on jamiyatining keyingi hayotida ham bu harakat katta rol o'ynadi.

Hamma davrlarda va jamiyatlarda bo'lgani singari xalq orasidagi boshboshdoqliklar, murosasizliklar, mol – mulkka bo'lgan ehtiyoj, sotqinliklar mamlakat tanazzuliga, uning yemirilishiga olib keladi. Buni yuqoridagi

---

<sup>1</sup> Асланов М.Г. Отражение классовой борьбы в афганской литературе XVI – XVII вв. Москва, 1951. Стр.122

<sup>2</sup> Ганковский. Ю.В. История Афганистана с древнейших времен до наших дней. Москва, 1982. Стр.113.

misollarda ham ko'rishimiz mumkin. Agar mana shu davrda afg'onlar birlashib chet ellik hukmdorlarga qarshi birgalikda kurashganlarida va roshaniylarni to'liq qo'llab – quvvatlaganlarida bu harakat mag'lubiyatga ucharamas edi. Ko'rib turganimizdek bu davrda Afg'oniston hududida vaziyat ancha jiddiy bo'lib, xalqning ahvoli nihoyatda og'ir bo'lgan. Afg'on xalqi turli nohaqliklardan azoblanar, o'z yeridan xohlaganicha foydalana olmas edi. Mamlakatda mulkiy tengsizlik hukm surardi. Ammo xalqning mana shunday qiyinchiliklarga uchrashida bir tomondan afg'onlarning o'zi ham aybdor. Chunki ularning aksariyati o'z joni va mol - mulkidan xavotirlanib ajnabiy hukmdorlarning xizmatiga o'tdilar va xalqning azob chekishiga o'zlarining "samarali" hissalarini qo'shdilar. Bunga misol tariqasida Malik Sado hamda Malik Tor Axdadlarni ko'rsatib o'tishimiz mumkin. Bu paytdagi Afg'onistondagi vaziyatga nazar solib shunday xulosa qilish mumkin-ki, Afg'oniston uchun, uning xalqi uchun roshaniylar harakati suv va havodek zarur edi. Chunki aynan ular xalqni birlashishga, ularni o'z haq - huquqi uchun kurashishga o'rgatdilar. Roshaniylar afg'on jamiyatiga haqiqiy ma'noda ma'rifat olib keldilar desak mubolag'a bo'lmaydi.

## **I.2. Boyazid Ansoriyning hayot yo'li va faoliyati**

Boyazid Ansoriyning hayot yo'li bevosita roshaniylar harakati va roshaniylar adabiyotining shakllanishi bilan bog'liq. U chindan ham roshaniylar harakatining asoschisi, kuchli targ'ibotchisi, rahnamosi, pushtu, fors, arab va boshqa tillardagi bir nechta yirik asarlarning muallifi hisoblanadi.<sup>1</sup> Ularda roshaniylar ta'limotining asosi bayon qilingan. Boyazid Ansoriyning ishlari roshaniylar adabiyotining birinchi na'munalari bo'lib, ularda uning asosiy yo'nalishi va g'oyalari bayon etilgan.<sup>2</sup> Roshaniylar harakatining ko'plab

---

<sup>1</sup> Shafi M. Bayazid Ansari. London, 1960. P.68.

<sup>2</sup> Маннанов А.М. Рoшанийская литература. Ташкент, 2006. Стр.20.

tadqiqotchilari Boyazid Ansoriyni 1524-yoki 1525-yilda tug'ilgan deb hisoblashadi. Biroq uni 1521-yilda tug'ilgan deb aytishga asoslar bor. Masalan, roshaniylar harakati tarixi va Boyazid Ansoriyning tarjimai holiga bag'ishlangan Ali Muhammad Muhlis tomonidan yozilgan "Holnoma" ("Tarjimai hol") kitobida shunday ma'lumot bor: "Zahiriddin Muhammad Bobur - Boburiylar sulolasi asoschisi 1525 - yil noyabrda Hindistonga kirganda, uning yoshi beshda edi."<sup>1</sup> Boyazid Ansoriyning tug'ilgan joyi haqida barcha manbalarda Jallandxar (Panjob) deb ma'lumot beriladi. Manbalarda aytilishicha Boyazid Ansoriyning uzoq ajdodlari Muhammad payg'ambarning safdoshlari bo'lib, ansorlar bo'lishgan.<sup>2</sup> Biroq bu taxminiy fikrni tasdiqlash uchun ishonchli ma'lumotlar yo'q. Boyazid Ansoriyning oila a'zolari va ajdodlari diniy arboblardan va ibodat xizmatchilari hisoblanganligiga shak-shubha yo'q. Boyazid Ansoriyning otasi-Abdulloh shayx Muhammadning o'g'li edi. Asli kelib chiqishi Kaniguram (Vaziriston)da o'rnashgan uncha katta bo'lmagan ormur (yoki baraklar) elatidan bo'lib, zodagon, ya'ni shayx va qozi edi. Taxminan 1520-yil oxiri 1521-yil boshlarida Abdulloh otasi bilan Jallandxarga keldi. U yerda u o'lgan akasining bevasi Bibi Oymanaga uylandi. U o'g'il tug'adi, unga Boyazid deb ism qo'yishadi. Boyazidning onasi Bibi Oymana Abdullohning ikkinchi xotini edi.<sup>3</sup> Birinchi xotining ismi Fotima edi. Undan ham Yoqub ismli o'g'li bor edi. Boyazid tug'ilganidan qirq kun o'tib shayx Abdulloh o'lgan otasining yerlari va qozilik unvonining merosxo'ri bo'lish uchun o'g'li va xotinini qoldirib Kaniguramga qaytdi. Bir yarim ikki yildan so'ng Bibi Oymana Xuday dada (Abdullohning akasi) hamrohligida Kaniguramga keladi. Bu yerda Boyazid va uning onasi bir qancha vaqtni Abdullohning uyida uning birinchi xotini va o'g'li Yoqub bilan o'tkazishdi. Tabiiyki, raqiblar uzoq tinch-totuv yashay olishmadi. Bibi Oymana janjalkash va baxil Fotimaning kamsitishlariga chiday olmadi. Tez kunda Bibi Oymana Jallandxarga qaytishga majbur bo'ldi, Boyazid esa otasining xohishiga ko'ra ota

---

<sup>1</sup> Маннанов А.М. Рошанийская литература. Ташкент, 2006. Стр.20.

<sup>2</sup> Маннанов А.М. Рошанийская литература. Ташкент, 2006. Стр.21.

<sup>3</sup> Маннанов А.М. Рошанийская литература. Ташкент, 2006. Стр.21.

uyida qoldi. Bu yerda u o'gay ona va akaning ozorlariga chidashga majbur bo'ldi. Onasidan ayrilish yetti yoshli Boyazidga kuchli ma'naviy og'riq berdi. Tez kunda Boyazid yana bir baxtsizlikka duchor bo'ladi: sevimli amakisi Xudoy dadaning homiyligidan mahrum bo'ladi, u akasi Abdulloh bilan chiqishmas va sirli holatda o'ldirilgan edi. Amakisining o'limi, onasidan ayrilish, yetimlikning nohaqliklari, ko'plab uy yumushlari – Boyazidning yoshligi shunday sharoitda o'tar edi. Shunday bo'lsa-da Boyazid o'zining o'gay ukasi bilan boshlang'ich ma'naviy ta'lim asoslarini otasining eng yaxshi o'quvchisi mulla Paindadan oldi.<sup>1</sup> U Qur'on va boshqa diniy kitoblarni o'rgandi. Biroq Boyazidga o'qishni davom ettirishga ko'plab uy yumushlari xalaqit berdi. Bundan tashqari u tez-tez otasi bilan savdo-sotiqqa chiqar edi.<sup>2</sup> Afg'on biograflari Boyazidni tabiatan aqlli va intiluvchanligini ta'kidlaydilar. Uning ta'lim olishi bilan bog'liq boshqa ma'lumotlar ham mavjud: “Boyazidning otasi uni aqliy va ruhiy faoliyat bilan shug'ullanishini niyat qiladi. Ammo Boyazid otasining niyatiga qarshi chiqadi. U oqsuyaklar xonadoniga mansub shayx Bohouddin Zakariyaning o'g'illaridan biriga shogird bo'ladi. Keyinchalik esa kambag'al qo'shnisi Xoja Ismoilning shaxsiy tanlovi bilan unga murid bo'ladi.<sup>3</sup> Bohouddin Zakariyaning oilasidan bo'lgan shayxning shayx unvoni merosiyligi haqidagi ta'limotidan bosh tortib, shayx unvoni merosiy emasligini asoslab beradi.<sup>4</sup>” Boyazid ulg'ayganida ota uyida qolib ta'lim ololmasligini tushundi. Bir kuni u otasiga murojaat qilib, Makkaga haj qilishga va undan keyin oliy ma'lumot olishga ruxsat so'radi. Abdulloh o'g'liga uzoq safar ko'p mablag' talab qilishini aytib rad javobini berdi. Ota bila befoyda suhbatdan so'ng Boyazid hayotida keskin burilish yuz beradi. Asta-sekin Boyazid Ansoriyning ma'naviy intilishlari doirasi darvesh, faqir va zohidlarning sirli taqdiri bo'lib qoladi. Boyazid ularning yig'ilish va marosimlarida qatnasha boshlaydi. O'g'lining “aqli ozganlar”ning ishi bilan qiziqib qolganini bilib qolib, Abdulloh

---

<sup>1</sup> Shafi M. Bayazid Ansari. London, 1960. P.70.

<sup>2</sup> Маннанов А.М. Рошанийская литература. Ташкент, 2006. Стр. 21.

<sup>3</sup> J. Leyden. On the Rosheniah sect and its founder Bayazid Ansari. London, 1812. P.70.

<sup>4</sup> И.М. Рейснер. Развитие феодализма и образование государство у афганцев. Москва, 1954. Стр.278.

ularning yig'ilishlarida qatnashishni qat'iy man qiladi.<sup>1</sup> Boyazid o'zini ota uyida ortiqcha hisoblagani sari uning qalb izzitoblari tobora chidab bo'lmas darajaga yetdi. Kun kelib, Boyazid otasiga o'gay ona bilan bir uyda yashay olmasligini aytdi. U otasidan mustaqil yashash uchun unga mulkidan o'z ulushini ajratib berishini so'radi. Ota o'g'lining gapiga rozi bo'ldi. Otasidan ajrab, Boyazid savdosotiq bilan shug'ullana boshladi. Hayotining bu davrida Boyazid Samarqanddan Hindistonga sotish uchun otlar olib kelgan.<sup>2</sup> Samarqand, O'rta Osiyo va Hindistonning boshqa shaharlarida, zamonaviy Afg'onistonning hududida joylashgan boshqa joylarda bo'lib Boyazid turli toifa insonlar bilan uchrashdi. U turli xalq vakillarining hayoti, turmush tarzi va e'tiqodi bilan tanishdi. Bu Boyazidning ma'naviy dunyoqarashining rivojlanishiga, uning g'oyaviy qarashlarining shakllanishiga jiddiy ta'sir qildi. Boyazid bid'at sifatida qaraladigan islomning sodiq vakillari oqimi bilan tanishdi.<sup>3</sup> "Holnoma" da xabar berilishicha, Kaniguramga qaytib, Boyazid o'zining amakisi shayx Xasanning qizi Bibi Shamsiga uylanadi, bir yil o'tib Boyazidning birinchi o'g'li Umar tug'iladi. Boyazid uylanganidan keyin ham sufiylar hayoti bilan qiziqadi. Teologiya, sufizm va boshqa diniy ta'limotlar bo'yicha o'z bilimini oshirish uchun u yana o'ziga o'qituvchi, ma'naviy ustoz (pir) qidiradi.<sup>4</sup> Ko'rinib turibdiki, aynan ana shu vaziyat uni qarindoshlaridan biri Hoji Ismoil (Xuday dadaning o'g'li) bilan yaqinlashtiradi. Keyinchalik uni o'z ustoz sifatida tanlaydi. "Dabistan al-mazahib" va "Holnoma" da yozilishicha, ota o'z o'g'lining tanloviga noroziligini bildiradi, Boyazidni shayx yoki qozi bo'lishi kerak deb hisoblaydi. Shuning uchun Abdulloh Boyazidni, nomi ulug' Baxauddin Zakariy Mo'ltoniyning ajdodi bo'lgan mashhur shayxlardan birining shogirdi bo'lishga majbur qiladi. Boyazid o'zini mistik mashqlar bilan sinovlarga duchor qiladi, kamolotga yetkazishning sufiylik bosqichlaridan o'tadi.

---

<sup>1</sup> Маннанов А.М. Рошанийская литература. Ташкент, 2006. Стр.23.

<sup>2</sup> Nazarov B. Holnomayi Boyazid Rushon. Sharq mash'ali jurnali 1996 – yil soni. 7-bet.

<sup>3</sup> Рейснер И.М. Развитие феодализма и образование государство у афганцев. Москва, 1954. Стр. 280.

<sup>4</sup> Ali Muhammad Muhlis. Holnoma. Kobul, Afghanistan, 1980. P.75.

C.A.A.Rizviyning aytishicha, Boyazid sufiylikning bunday usuli bilan yillab mashq qilgan. Masalan, zikri xafi – xudoni soʻssiz eslash, goʻyoki, oliy haqiqatni bilishdir.<sup>1</sup> Bir oz vaqt oʻtib Boyazid tarki dunyodan iborat hayotini tashlab, savdo karvoni bilan Qandahorga joʻnaydi. “Holnoma”da yozilishicha, Boyazid Qandahorga sayohatga savdo ishlari qiziqtirgani uchun emas, balki uning yuragini qiynayotgan, teologiya va sufizmning murakkab savollariga aniq javob beradigan “yetuk ustoz” (“piri komil”)ni qidirish uchun chiqqanini taʼkidlaydi. Biroq bu shaharda bunday insonni topa olmaydi. Yuragi taskin topishi oʻrniga Boyazid va uning afgʻon doʻstlari mahalliy zodagonlar tomonidan kamsitish va zulm koʻradilar. “Xolnoma” da yozilishicha, Boyazid Qandahorga yetib kelganda hind hukumati vakillari tomonidan zakot (soliq) yigʻish bahonasida Boyazid va uning sheriklarining barcha mulkini olib qoʻyishadi. Bu ishda Bahromxon – hind hukumatining Qandahordagi noibi qatnashgan edi.<sup>2</sup> U ularning mulkini qaytarib berishga vaʼda qiladi. Biroq u oʻz soʻzida turmaydi. Boyazid uchun bu qattiq zarba boʻldi. U Kaniguramga qaytib, hayotining besh yilini oʻzining nazariy va amaliy bilimlarini, sufizm boʻyicha koʻnikmalarini chuqurlashtirishga bagʻishladi. Boyazid hayotining bu davrining taʼrifida rivoyat va gʻalati voqealar koʻp. Yolgʻizlik, uzoq va mashaqqatli oʻz fikr hayollariga choʻmish, mistik mashqlar oʻz natijasini berdi: Boyazid Yaratganning ovozi eshitadi. U Boyazidga ilohiy pir va yetuk inson sifatida ezgu ishlar qilishga fотиha beradi. U Boyazidga bundan keyin odamlar orasida Olloh soʻzini tarqatishga, zulmatda adashganlarni ilohiy yorugʻlikka olib chiqishga, haqiqatni anglashga yoʻl koʻrsatishga va xudo bilan birlashishga amr etadi. Shunday qilib, taxminan XVI asrning 60-yillari boshlarida Kaniguramda Boyazid oʻzining faoliyatini boshlaydi: uning bayon qilishicha, bu vaqtga kelib ancha muncha tizimga kelib qolgan Roshaniylar taʼlimotini yoyadi. “Holnoma” da yozilishicha, birinchi boʻlib bu taʼlimotni qabul qilgan uning xotini Bibi Shams boʻlgan. Soʻng unga asta-sekin Kaniguramning koʻplab aholisi

---

<sup>1</sup> S.A.A. Rizvi. Rawshaniyya movement. London, 1967. P.63.

<sup>2</sup> Асланов М.Г. Народное движение рошани и его отражение в афганской литературе 16-17 в.в. «Советское востоковедение». М.,1955. Стр.74.

qo'shildi, shu qatorda ayollar ham. Bu ishda Bibi Shamsning xizmati katta bo'ldi.<sup>1</sup> Abdulloh Bibi Shams ochiq yuz bilan erkaklar – Boyazidning izdoshlariga murojaat qilgani uchun Boyazidni keskin qoralaydi. Bu hol o'g'li uchun qabiladoshlari oldida uyatli ekanligini aytadi.<sup>2</sup>

Dastlab Boyazid va uning o'quvchilari uning uyida, asosan, kechki payt yig'ilishardi va suhbatlashishardi, bahslashishardi, turli sufiylik marosimlarini bajarish bilan shug'ullanishardi. Ularda erkaklar bilan bir qatorda ayollar ham faol ishtirok etishardi. Yig'ilishlarda Boyazid doimo o'z ta'limotining asoslarini takrorlar, uncha ko'p bo'lmagan izdoshlaridan ma'naviy kamolotga erishishning turli sufiylik qismlarini bajarishni talab qilar edi. Ishlarining muvaffaqiyati uchun Boyazid va uning tarafdorlari o'z mol-mulklaridan voz kechishdi.<sup>3</sup> Boyazid aynan uning ta'limoti, uning yo'li haqiqatga erishish, odamlarni zulmat va jaholatdan qutqarish uchun eng to'g'ri yo'l ekanligini ochiq aytardi. Zulmat va jaholat ortida u islomning asl ma'nosini, payg'ambarning hikmatli so'zlarini, Qur'onning sura va oyatlarini buzilishini nazarda tutgan edi.<sup>4</sup> "Holnoma" Boyazid ta'limotining o'suvchi ta'sirga ega bo'lganligini ko'rsatuvchi ko'plab dalillarni keltiradi. Odamlar uning oldiga nafaqat qalb so'roqlariga javoblar olish, ilohiy haqiqatning sirli sabablarini bilish uchun, balki murakkab ijtimoiy savollarga javob olish, u yoki bu ziddiyatlarni hal qilish uchun ham kelishardi. Boyazidning obro'si kundan – kunga o'sib borayotganini ko'rgan kaniguramlik ulamo, mulla va mahalliy zodagonlar "yangi qallob pir"ning ta'siridan tashvishlanishardi. Ular Boyazid va uning tarafdorlarini xudodan qaytganlik, shakkoklik va bid'atchilikda ayblashdi. Ular Boyazidning ishlari va so'zlari shariatga mos kelmasligini bildirishdi. Shunday tarzda bir tomondan ruhoniylar va zodagonlar, ikkinchi tomondan Boyazid bilan birinchi g'oyaviy to'qnashuv va kelishmovchiliklar boshlandi. Qarama-qarshiliklar uch yil atrofida davom etdi. Ayniqsa Boyazidning avvalgi diniy arboblardan, badavlat odamlar va hukumatdagilar Qur'onning asl ma'nosidan va

---

<sup>3</sup> Nazarov B. Holnomayi Boyazid Rushon. Sharq mash'ali jurnali. Toshkent, 1996 – yil soni. 8 – bet.

<sup>2</sup> Маннанов А.М. Рошанийская литература. Ташкент, 2006. Стр. 24.

<sup>3</sup> S.A.A. Rizvi. Rawshaniyya movement. London, 1967. P.65.

<sup>4</sup> Маннанов А.М. Рошанийская литература. Ташкент, 2006. Стр.24.

ilohiy mohiyatning yagonaligini tushunishdan yiroq, ular islomning sotqinlari va ikkiyuzlamachilardir degan firklari mahalliy zodagonlar va ruhoniylarni tashvishga solar edi.<sup>1</sup> Muxoliflar Boyazidni jazosini berishni o'ylashardi. Muqarrar qadamdan ularni qabiladoshlar orasidagi Boyazidning obro'si ushlab turardi. Uning ortida hamma narsaga tayyor ko'plab tarafdorlari turar edi. Ular Boyazid obro'li insonning – qozi Abdullohning o'g'li ekanligini bilishardi. Shuning uchun Boyazidning dushmanlari undan birdaniga qutulishdan qo'rqishardi. Ular Boyazidni tovlamachi, aqldan ozgan, islom aqidalarini o'z manfaati uchun talqin qiladi, xudosiz, namoz o'qishni tashlagan va shariat qoidalariga rioya qilmaydi deb e'lon qilmoqchi bo'lishadi.<sup>2</sup> Boyazid nasihatlari mazmuni bo'yicha ommaviy so'rovlar o'tkazilar edi. Boyazidni o'zini Ollohning elchisi deb e'lon qilganlikda, Olloh bilan Muhammad payg'ambar gaplashganidek gaplashganlikda, ya'ni vahiy olganlikda ayblashardi. Uni o'zining va'zlarida xalq ichida hurmatli insonlarni, ruhoniylarni haqorat qilishda ayblashardi. Boyazid muholiflarning aybini osonlik bilan Qur'on va boshqa diniy manbalardan foydalanib fosh qilar edi.<sup>3</sup> Boyazid o'z izdoshlarini zamonaviy ruhoniylar islomning ma'nosini buzib ko'rsatadi, bu esa nodonlik deb ishontirardi. Boyazid o'z fikrlarida barqaror edi. Bu esa uning dushmanlarini ko'paytirardi va uning xalq orasida mashhur bo'lishiga turtki bo'ldi. Biroq voqealar Boyazid va uning tarafdorlarining foydasiga rivojlanib bormadi. Boyazidning dushmanlari Abdulloh qozidan o'g'lini tavba qilishga majbur qilishini talab qilishardi.

Boyazidning faoliyati Abdulloh va o'gay ukasi Yoqubni anchadan berg'azablantirar edi. Ular Boyaziddan dinga qarshi ishlarini to'xtatishni talab qilishardi. Abdulloh o'g'liga qattiq turib qozi bo'lishini maslahat berdi. Biroq Boyazid o'z fikrida turib, otasiga tanlagan yo'li haqiqatning yagona yo'li ekanligini, shuning uchun unga oxirigacha sodiq qolishini aytdi. Boyazidni haqqoniy yo'lga qaytmasligiga ishonch hosil qilib, Abdulloh va Yoqub bir necha

---

<sup>1</sup> Асланов М.Г. Отражение классовой борьбы в афганской литературе XVI – XVII вв. Москва, 1951. Стр. 95.

<sup>2</sup> Маннанов А.М. Рошанийская литература. Ташкент, 2006. Стр. 26

<sup>3</sup> Маннанов А.М. Рошанийская литература. Ташкент, 2006. Стр.27

marta uning hayotiga xavf solishdi. Buni amalga oshirishning iloji bo'lmadi, chunki Boyazidning himoyasida uning tarafdorlari va ular qatorida tabarruk Boyazid piri ularning qo'liga bermoqchi bo'lmagan mahalliy zodagon va ruhoniylar turar edi.<sup>1</sup> Ko'rinib turibdiki, bu voqealar yangilik emas. U ko'plab jihatlari bilan Sharqdagi, shuningdek G'arbdagi o'rta asrning mashhur diniy islohotchilari va sufiylarining hayotidagi fojeali voqealarni eslatadi.

Boyazidning kundan-kunga ortayotgan tarafdorlari uni "Piri komil" ("Barkamol qariya"), "Piri Roshan" ("Yorug'lik otasi"), Olloh tomonidan yuborilgan o'z davrining yetuk insoni, deb atashardi.<sup>2</sup> Boyazid o'z tarafdorlarini boshqa yurt, shahar, qishloqlarga o'z ta'limotini yoyish maqsadida yuborar edi. U hattoki o'z otasi va ukasiga haqiqat yo'lini tanlab, uning ta'limotiga amal qilishlarini ta'kidlardir. Bu qadam og'ir oqibatlariga olib keldi: Boyazidning otasi va ukasi bilan avvalgi nizolar yanada jiddiylashdi. Ayniqsa, Boyazidga Kaniguram va uning atrofida mashhur bo'lgan diniy arboblari Zakariy va shayx Uriylar dushmanlarcha qarshilik ko'rsatishdi. Boyazid bilan jismoniy kuch yordamida kurashish oson emasligiga ishonch hosil qilib, shayx Uriy mahalliy zodagonlardan Boyazidni o'z yurtidan haydab chiqarishni talab qildi.<sup>3</sup>

Boyazid Ansoriy o'z g'oyalarini "Xayr ul - bayon" nomli asarida bayon etgan. Ko'rib turganimizdek Boyazid Ansoriy ilgari surgan g'oyalar o'sha paytdagi afg'on jamiyati tomonidan yaxshi qabul qilingan. Uning g'oyalari asosan oddiy xalqqa manzur bo'lgan. Yuqori tabaqa vakillari uning ta'limotini tan olishmagan. Afg'on xalqi o'sha vaqtda turli chet ellik yer egalarining bosimi ostida yashar, ularni o'z kelajagiga, ertangi kuniga ishonch bera oladigan bir g'oya kerak edi. Mana shunday g'oyani aynan Boyazid Ansoriy ko'tarib chiqa oldi. Uning o'zi ham og'ir sharoitda, qiyinchilikda ulg'ayganligi uchun ham o'z xalqining dardini tushuna oldi. Ularning qalb sitamlariga Olloh davo bo'lishini, uning mavjudligiga ishonish kerakligini keng jamoatchilik oldida targ'ib qildi. U o'z ta'limotlarini

---

<sup>1</sup> Асланов М.Г. Народное движение рошани и его отражение в афганской литературе 16-17 в.в. «Советское востоковедение» М., 1955. Стр.78.

<sup>2</sup> Маннанов А.М. Рошанийская литература. Ташкент, 2006. Стр. 27.

<sup>3</sup> Маннанов А.М. Рошанийская литература. Ташкент, 2006. Стр.28.

yaratib ularni “Xayr ul - bayon” nomi bilan kitob holiga keltirdi va uni xalq orasida yoydi. Uning bu kitobi afg'on xalqi ongining rivojlanishiga, dunyoqarashining kengayishiga, ijtimoiy hayotda nimalarga intilib yashash kerakligini tushunishga katta yordam berdi. Bu afg'on adabiyotining shakllanishiga va go'zal asarlarning yaratilishiga zamin bo'ldi. Bundan tashqari bu asar afg'on – pushtu tilining rivojiga ham katta hissa qo'shdi, keyingi afg'on shoirlarining ijodiga beminnat yordamchi bo'ldi. Yuqoridagilardan kelib chiqib shunday xulosa qilishimiz mumkinki, Boyazid Ansoriy afg'on xalqining haqiqiy ma'rifat ulashuvchisi, xalqni savodli bo'lishga undagan yetuk murabbiydir. Hozirgi Afg'onistonda ozmi – ko'pmi shakllangan ta'lim, adabiyot sohasida Boyazid Ansoriyning xizmati beqiyosdir. Shuning uchun ham hozirgi kunda afg'on xalqi uning nomiga “Oliy hazrat” maqomini qo'shishni kanda qilmaydilar.

## **II.BOB. Roshaniylar harakatining ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotga ta'siri**

### **II.1. Roshaniylar harakatining yirik namoyondalari**

Roshaniylar harakatining yirik namoyondasi sifatida avvalambor Boyazid Ansoriy tilga olinadi. U o'z asarlarida ozodlik, tenglik, birodarlik singari g'oyalarni targ'ib etgan. Hozirgi afg'on she'riyatining go'zalligida Boyazid Ansoriyning ham xizmati kattadir. Chunki u afg'on adabiyotida qofiyali nasr yo'nalishiga asos soldi. Bu esa afg'on adabiyotining go'zal she'rlar bilan boyishiga sabab bo'ldi. Keyinchalik uning ijodini Arzoniylar Xeshki, Ali Muhammad Muhlis, Mirzaxon Ansoriy, Vosil Roshaniy, Davlat Lavoniy, Karimdod Roshani, Mulla Arzoniylar, singari roshaniy shoirlar davom ettirdilar. Bu shoirlar XVII asrda Afg'oniston adabiyotida ijtimoiy va demokratik fikrlarni targ'ib etdilar. Keyinchalik XVII – XVIII asrlarda roshaniylar adabiyot maktabidan Xushholxon Xattak, Abdurahmon Rahmonbobo, Abdulhamid, Abdulqodirxon Xattak, Kozimxon Shaydo, Pirmuhammad Kokar, Ahmadshoh Durraniy kabi zabardast shoirlar yetishib chiqdi va Afg'oniston adabiyot rivojida sermahsul davr boshlandi.<sup>1</sup> Roshaniylar asosan afg'on (pushtu) tilida ijod qildilar va bu tilni afg'on adabiyotining asosiy ijod tiliga aylantirdilar. Hozirgi Afg'oniston adabiyoti ham aynan roshaniylar ijodi ta'sirida shakllandi va hozirgi ijod ahlida ham roshaniylar ta'siri sezilib turadi.

Arzoniylar Xeshki – afg'on she'riyatida Boyazid Ansoriyning g'oyalarini gavdalantirgan yetuk shoir hisoblanadi. U Boyazid Ansoriyning yaqin safdoshi va muhlisi bo'lgan. Afg'oniston adabiyoti tarixida Arzoniylar nafaqat yetuk roshaniy shoir balki klassik pushtu adabiyotining tashabbuskori va pushtu tilidagi birinchi devonning muallifi hisoblanadi. Arzoniylarning hayoti va adabiy faoliyati haqida ma'lumotlar juda kam. Alohida biografik ma'lumotlar zamondoshlarining

---

<sup>1</sup> "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Toshkent, 2000. 526-bet.

asarlarida va o'zining shaxsiy she'rlarida uchraydi.<sup>1</sup> Bu ma'lumotlarda shoirning ijodiy portreti va adabiy nuqtai – nazarlari qisqacha aks ettirilgan. Arzoniylar haqidagi dastlabki ma'lumotlar Oxund Darvozaning “Tazkirat al - abror va - al ashror” kitobida uchraydi. U jumladan Arzoniylarning aka - ukalari haqida quyidagicha ma'lumotlar keltirib o'tadi:

“Ular afg'onlarning xeshki qabilasiga mansub uch aka – uka edilar. Ulardan birining nomi Mulla Arzoniylar, boshqasini Mulla Umar va uchinchisini Mulla Ali edi. Ular Hindistondan kelishdi va la'nati Boyazidga batamom qo'shilishdi. Arzoniylar ziyarak shoir va notiqlik qobiliyati egasi bo'lib, pushtu, fors, hind va arab tillarida she'rlar yozdi va o'zining barcha kitoblarida bu la'nati Boyazidga tarafdor edi. Arzoniylar xato va kamchiliklarga to'la kitob yozdi va uni “Chahor rama” deb nomladi. Shundan so'ng u qaroqchilar va musulmon “zulmat otasi” (bu yerda Boyazid Ansoriylar nazarda tutilmoqda)ning qotillari bilan ajraldi va yana Hindistonga qaytib ketdi. Ammo uning ikki aka – ukasi bu yerda qoldilar.”<sup>2</sup> Shuningdek, Oxund Darvoza Boyazid Ansoriylarning “Xayr ul - bayon”ining bir qancha qismini Arzoniylar yozganini xabar qiladi.

Arzoniylarning otasining ismi Burxonxon bo'lib, o'sha vaqtda Panjobning Qaysur viloyatida yashayotgan afg'onlarning heshki (yoki hveshki) qabilasiga mansub bo'lgan. “Holnoma” asarining muallifi Ali Muhammad Muhlis Arzoniylarning fors tilida yozilgan she'rlari jamlanmasidan iborat “Mirat ul - muhaqqin” (Haqiqat izlovchilar uchun oyna) asari haqida gapirib o'tadi. Bu asarning bir qancha qismlari “Holnoma”ga kiritilgan. Ali Muhammad Muhlisning ma'lumotlari shunisi bilan muhim-ki, Arzoniylarning fors tilidagi ijodi haqida hozirga qadar hech narsa ma'lum emas. Bu asar tarbiyaviy ahamiyatga ega. Unda Arzoniylar o'zini “faqire afg'on” ya'ni “qashshoq afg'on” deb ataydi. U yosh yigitga oq yo'l tilaydi, uni o'z-o'zini ma'naviy kamolotga yetkazishda sufiylik yo'lining sirli ibodati haqida xabardor qiladi. Jumladan u sufiylikning Xudo

---

<sup>1</sup> Маннанов А.М. Рошанийская литература. Ташкент, 2006. Стр. 115.

<sup>2</sup> Маннанов А.М. Рошанийская литература. Ташкент, 2006. Стр.115.

haqidagi ta'limotining asl mohiyati, shariat bosqichlari va pirning inson ma'naviy hayotidagi ahamiyatini tushuntirib beradi. Bu she'riy parchalardan Arzoniylar fors tilida masnaviy va g'azallar yozishda shoirlik qobiliyatini puxta egallaganligini ko'rishimiz mumkin. Yuqorida tilga olingan asrlardan tashqari shoirning butun ijodiy merosining qimmatbaho na'munasi bo'lgan bir nechta she'rlar devoni bizgacha yetib kelgan. Hozirgi kunda uning oltita qo'lyozma devonining nusxasi mavjud. Ulardan birinchisi Peshovarda Saida Fazla Hamadoniylarning kutubxonasida saqlanadi. Habibullo Rafiylarning ma'lumotiga ko'ra bu devonning 140 sahifasidan shoirning g'azallari o'rin olgan. Qo'lyozmaning 140-sahifasidan 240-sahifasigacha ruboiylar o'rin olgan. Bu devon baytlarining soni deyarli uch mingga yetadi.<sup>1</sup>

Ikkinchi nusxa Kobulda afg'on shoiri va yozuvchisi Abdurauf Benavoniyning shaxsiy kutubxonasida saqlanadi. Uchinchi nusxa Peshovar muzeyida, to'rtinchi nusxa Peshovarda "Pashto akademiyasi"da saqlanadi. Beshinchi nusxa Muhammad Navozxon Xattakning shaxsiy kutubxonasidan o'rin egallagan. Oltinchi nusxa esa Londondagi Britaniya muzeyida saqlanmoqda. Londonda saqlanayotgan nusxani to'liq deb bo'lmaydi. Chunki u bor yo'g'i Arzoniylarning 50ta she'ridan iborat (49 ta g'azal va 1 ta qasida). 1983-yil Kalkuttada "Bengaliya Osiyo jamiyati" kutubxonasida yana bir roshaniy shoir Mirzaxon Ansoriylarning pushtu tilidagi devoni bilan bir qatorda Arzoniylarning 70 ta she'ri namoyish etildi. Bizga ma'lumki, Arzoniylarning devoni hozirga qadar na Afg'onistonda va na undan tashqarida nashr etilgan. H.Rafi va Z.Xivadmulning asarlarida shuningdek, o'rta asrlar pushtu adabiyoti haqidagi kitoblarda keltirilgan ma'lumotlarni hisobga olmaganda uning she'riyati amalda to'liq o'rganilmagan. Afg'on kitobxonlarining fikricha, Peshovarda Saida Fazla Hamadoniylarning kutubxonasida saqlanayotgan Arzoniylarning devoni ancha to'liq hisoblanadi. Bu qo'lyozma devon 114 g'azal, 15 qasida va 570 ruboiyni o'z ichiga oladi. Shoirning barcha she'rlari "Arzoniylar"

---

<sup>1</sup> Маннанов А.М. Рошанийская литература. Ташкент, 2006. Стр.116.

taxallusida yozilgan. Arzoniyning ijodi markazidan Boyazid Ansoriyning “yagona borliq” ta’limoti o’rin olgan.<sup>1</sup>

Roshaniy mualliflar va XVII – XVIII asr klassik afg’on shoirlarining e’tirof etishlaricha, Mirzaxon – Nuriddinning o’g’li, Boyazidning nabirasi – atoqli shoir bo’lgan. Mirzaxonning zamondoshlaridan biri Davlat Lavoniy uning roshaniylar adabiyotidagi she’riyatining o’rnini quyidagicha ifodalaydi:

“Nuriddin o’g’li Mirza haqida nima desam ekan. Pir roshan bilimlar shahri, Mirza esa darvozasidir.”

Mirzaxon Ansoriyning ijodida ayniqsa chuqur shoirona ifoda, roshaniylarning g’oyalari va qarashlari o’z aksini topgan. Barcha roshaniylar adabiyoti vakillari singari roshaniylar harakatining sufiylik g’oyalari va Boyazid Ansoriyning ijtimoiy qarashlari Mirzaxon ijodining ham asosiy manbai edi. Mirzaxon she’riyati nafaqat roshaniy shoirlar ijodiga, balki XVII – XVIII asr shoirlarining ijodiga ham samarali ta’sir ko’rsatdi.<sup>2</sup> Mirzaxonning adabiy merosi uning devonida jamlangan. Uning boshqa asar yozganligi hozircha noma’lum. Mirzaxonning ushbu devoni shoirning adabiy kasbdoshlari orasida naqadar mashhur ekanligini ko’rsatadi. Rossiya Federatsiyasi sharqshunoslik institutining Sankt – Peterburg bo’limida Mirzaxonning ikkita devoni saqlanadi. Ulardan biri hijriy 1181 – yilda (mil. 1767 - yilda) ko’chirilgan. U 223 g’azal, 14 qasida, 1 muxammas hamda “Sham va kapalaklar suhbat” nomli she’rni o’z ichiga oladi. Ikkinchi qo’lyozma birinchi qo’lyozmadan o’rin olgan materiallardan ajralib turadi. Undan noma’lum yozuvchining 11 g’azali o’rin olgan. Tahlilchilar uni XVIII asrning yarmida shimoli – g’arbiy Hindistonda ko’chirilgan deb hisoblaydilar.<sup>3</sup> Mirzaxon Ansoriy haqidagi ma’lumotlar boshqa roshaniy shoirlar haqidagi ma’lumotlar singari kam va bir – biriga ziddir. O’tgan asrning 60 – yillariga qadar Afg’oniston va Pokistonda Afg’oniston adabiyoti tarixi bo’yicha yaratilgan asarlar, ilmiy maqolalar hamda X.G.Raverty o’zining “XVI asrdan XIX asrgacha afg’on

---

<sup>1</sup> Маннанов А.М. Рошанийская литература. Ташкент, 2006. Стр.116.

<sup>2</sup> Маннанов А.М. Основные жанры рошанийской поэзии. Ташкент, 1986. Стр.55.

<sup>3</sup> Маннанов А.М. Рошанийская литература. Ташкент, 2006. Стр.122.

she'riyati na'munalari" nomli asarida aytganidek, bu shoir haqidagi ma'lumotlar bir – birini takrorlaydi.<sup>1</sup> Shoir haqida yangi ma'lumotlar aniqlanganligi munosabati bilan X.G.Raverty bergan ayrim ma'lumotlar o'z tasdig'ini yo'qotdi. X.G.Raverty shoirning asl ismi Fotihxon bo'lganini, afg'onlarning yusufzoy qabilasidan bo'lib, hijriy 1040-yildan (mil. 1630/31-yilda) she'rlar yoza boshlaganini aytadi. Lekin afg'on mabalari va Mirzaxonning asarlari bu ma'lumotlarni tasdiqlamaydi. X.G.Ravertyning bunday fikrga kelishiga shoirning Britaniya muzeyida saqlanayotgan qo'lyozma devonidagi o'ndan ortiq g'azalning "Fotihxon" taxallusi ostida yozilganligi sabab bo'lgan.<sup>2</sup> Ammo bu she'rlar Mirzaxonning Peshovarda (1959-yil) va Kobulda (1975-yil) nashr etilgan devonidagi she'rlar bilan solishtirilganda ularda Fotihxon nomi tilga olingan she'rlar uchramagan. Barcha manbalar shoirning haqiqiy ismi Mirzaxon bo'lganligini tasdiqlaydi. Mirzaxonni o'ziga ustoz deb bilgan "Holnoma" asarining muallifi Ali Muhammad Muhlis uni faqatgina Mirza yoki Mirzaxon deb ataydi. Afg'on tadqiqotchilari X.G.Ravertyning Mirzaxonning yusufzoylardan ekanligi to'g'risidagi fikrlarini ham shubha ostiga oladilar. Shoir devonini tuzgan Xomish Halil shoirni Boyazid Ansoriy ham mansub bo'lgan ormur qabilasiga mansub deb hisoblaydi. X.G.Raverty o'z asarida shoirning adabiy faoliyati boshlangan sanani hijriy 1040-yil (mil. 1630/31-yil) deb ko'rsatadi. Bu sana shoirning fojeali o'limi sanasiga to'g'ri keladi. Davlat Lavoniy o'z qasidalaridan birida Mirzaxon Ansoriyni aynan mana shu ko'rsatilgan yilda roshaniylarning dushmanlari bilan bo'lgan jangda Dekanda vafot etganligini yozadi. Davlat Lavoniyning ushbu ma'lumoti "Holnoma"da ham o'z tasdig'ini topgan. Unda Mirzaxon Ansoriy va uning o'g'li Abdul Hakim 1040-yil Dekanda bo'lgan jangda vafot etdi va Shamsobodda dafn etildi deb aytilgan.<sup>3</sup> Bundan tashqari X.G.Raverty yana bir qancha xatoliklarga yo'l qo'ygan. Masalan, u shoir hamisha Avrangzebning

---

<sup>1</sup> H.G. Raverty. Selections from the poetry of the Afghans from the 16<sup>th</sup> to the 19<sup>th</sup> century. London, 1868. P.75.

<sup>2</sup> Маннанов А.М. Рошанийская литература. Ташкент, 2006. Стр. 126.

<sup>3</sup> Маннанов А.М. Рошанийская литература. Ташкент, 2006. Стр. 127.

homiyligi ostida yashaganligini va Mirzaxon uni “muntazam nafaqa” deb ataganligini aytadi. Ammo Avrangzeb (1618-1707 y.y) taxtga 1658-yilda o'tirgan va boburiylar davlatini 1707-yilgacha ya'ni o'limiga qadar boshqargan. Shunday ekan uning boshqaruvi davrida shoir hayot bo'lmagan. Shoir vafot etganda Avrangzeb taxminan 13 yoshda bo'lgan. X.G.Ravertyning ma'lumoti Jahongir yoki Shoh Jahon haqida bo'lishi mumkin. Ularning boshqaruv davrida shoir hayot bo'lgan. Bu haqda “Dabiston al-mazohib” asrida mana bunday guvohlik beriladi: “Shoh Jahon boshqaruvi ostida yashovchi Nuriddin o'g'li Mirzaxon Davlatobodagi jangda o'ldirildi.” “Holnoma”da Mirzaxon haqida bir qancha yangi ma'lumotlar uchraydi. “Holnoma” muallifi Ali Muhammad Muhlis Mirzaxonni o'zining ijodiy va ma'naviy rahbari deb ataydi. U shoir otasi Abu Bakrning yaqin do'sti va safdoshi bo'lganini qayd etadi. Ular janglarda birgalikda qatnashishgan. Muhlis Mirzaxonni ilmli, oliyjanob, shu bilan birga kamtarin, sipo, xushchaqchaq va iste'dodli shaxs sifatida tavsiflaydi. “Holnoma”da Mirzaxon haqida quyidagicha ma'lumotlarni uchratish mumkin:

“U (Mirzaxon Ansoriy) donolar donosi edi. Uning mol – mulki bo'lsa-da, uni darvesh (kambag'al) deb atashardi. Chunki uning qalbida boylikka havas yo'q edi. Uni turmush ikir-chikirlari qiziqtirmasdi. Oilaning barcha yumushlari uning rafiqasi Bibi Nur Xotunning zimmasida edi. U esa hamisha Parvardigor haqida o'ylash bilan band bo'lardi. U kuylashni va kitob mutolaa qilishni yoqtirardi. O'zi ham rubobni yaxshi chalar va kuylar ijod qilardi. Yig'inlarda har doim kitob o'qish va qo'shiq kuylash bilan band bo'lardi. Ilmiy munozaralarda qatnashar, qatnashchilar bilan bahslashar, ba'zida esa yoshlar bilan o'ynashni va ularni kuzatishni yoqtirardi. Hech qachon xafa bo'lmas va har doim o'tgan hayoti haqida o'ylardi. Ba'zan hazillashar, atrofdagilarni kuldirardi. Uning yuzi hamisha kulgudan porlab turardi. U maysazorda, daryo va anhor bo'yida tez – tez sayr qilardi. U bemorlarni ziyorat qilishni kanda qilmas edi. Ularning davolanishlari uchun sharoit yaratib berar va o'zining shaxsiy tabiblarini biriktirib qo'yardi. U har doim oq kiyim kiyib yurardi. Ba'zan ovga chiqardi va egardan o'q uzishda mohir

edi. Bu faqirga (Ali Muhammad Muhlis) ko'p iltifot va marhamat ko'rsatdi."<sup>1</sup> "Holnoma"da shoir ishtirok etgan turli janglar haqida ma'lumotlar bor. Muhlis Mirzaxon Ansoriy, uning do'stlari va to'ng'ich o'g'li Abdul Hakim vafot etgan fojeali jang voqeasini tavsiflaydi. Mirzaxon Ansoriyning zamondoshi, yaqin do'sti Ali Muhammad Muhlis shoir haqida ilgari ma'lum bo'lmagan ko'plab qimmatli ma'lumotlarni qoldirgan.<sup>2</sup>

Roshaniy shoirlar, Boyazid Ansoriy maktabining davomchilari orasida "Muhlis" taxallusi bilan ijod etgan Ali Muhammad o'ziga xos o'rin egallaydi. Ali Muhammad iste'dodli inson, shu bilan birga pushtu va fors tillarida she'rlar yozgan sermahsul ijodkor, yetuk tarixchi, roshaniylar tarixi bo'yicha nodir kitob "Holnoma"ning muallifidir.<sup>3</sup> Bu shoir haqida bugungi kunda ma'lum bo'lgan ma'lumotlar juda kam va bir – biriga ziddir. Shoirning biografiyasiga oid xatoliklar juda ko'p. Afg'oniston va Pokistonda nashr etilgan ilmiy adabiyotlarda bir emas ikki Ali Muhammad Muhlis nomi uchraydi. Ularning birinchisi Oxund Darvozaning ma'lumotiga ko'ra shoir mulla Arzoniyy Xeshkining ukasi hisoblanadi. Oxund Darvoza o'zining "Tazkirat al-abror va al-ashror" asarida Arzoniyy qarigan chog'ida ona vatani Hindistonga jo'nab ketganini va Mulla Umar va Ali Muhammad ismli ukalarini o'z ustozini Boyazid Ansoriyda qoldirganini yozadi. Shuni qayd etish lozimki, Boyazid Ansoriy 1585-yilda vafot etgan. Oxund Darvozaning Arzoniyyning ukasi Ali Muhammad haqidagi ma'lumoti esa Darvozaning hayotining so'nggi kunlarida yozilgan (u 1638/39 – yilda vafot etgan). So'z yuritilayotgan Muhlis esa Oxund Darvoza vafot etgan yili taxminan 60-70 yoshlar atrofida bo'lgan yoki umuman hayot bo'lmagan.<sup>4</sup>

Boshqa Ali Muhammad Muhlis esa Abu Bakr Qandahoriyning o'g'li bo'lgan. Bu esa aynan o'sha Boyazid Ansoriyning "Holnoma"sini qayta ishlagan va to'ldirgan shoir va tarixchidir. U yuqorida tilga olingan Ali Muhammaddan ancha keyin yashagan. Britaniya muzeyida saqlanayotgan pushtu tilidagi

---

<sup>1</sup> Асланов М.Г. Афганцы: язык и духовная культура. Москва, 1957. Стр.155.

<sup>2</sup> Kaleem M.M. Pashto literature. The cultural heritage of Pakistan. Karachi, 1955. P.57.

<sup>3</sup> Маннанов А.М. Рoшанийская литература. Ташкент, 2006. Стр. 130.

<sup>4</sup> Kaleem M.M. Pashto literature. The cultural heritage of Pakistan. Karachi, 1955. P 59.

devonning nusxasi ulardan qaysi biriga tegishli ekanligini va kimning she'rlari "Muhlis" taxallusi bilan yoki oddiygina "Ali Muhammad" nomi bilan yozilganligini aniqlash muhimdir. Sidqulloh Rishtin va V.V.Kushevlar bu devon Abu Bakr o'g'li Ali Muhammadga tegishli deb hisoblaydilar. Abdulloh Bahtin, Habibulloh Rafilar esa bu devonni birinchi Aliga tegishli deb hisoblaydilar. Tadqiqotlar natijasida shu narsa aniqlandiki, Britaniya muzeyida saqlanayotgan devon aynan shinvoriy qabilasidan bo'lgan Abu Bakr o'g'li Ali Muhammadga tegishli. Shoirning deyarli barcha g'azallari "Muhlis" taxallusi ostida yozilgan. Pushtu tilidagi devonda aniqlangan mualliflik Abu Bakr o'g'li Ali Muhammadning tug'ilgan va vafot etgan yilini aniqlash imkonini beradi. "Holnoma" Boyazid Ansoriyning nabiralaridan biri Rashidxon (yoki Ilohdod) hijriy 1058 – yilda (mil. 1648 - yilda) 58 yoshida vafot etganligini xabar qiladi. Qizig'i Ali Muhammadning ushbu ma'lumoti yana bir roshaniy shoir Davlat Lavoniyning Rashidxon haqidagi ma'lumotiga mos keladi.<sup>1</sup> Davlat Lavoniy qasidalaridan birida Rashidxon hijriy 1058 – yilda vafot etdi deb yozadi. "Holnoma"ning boshqa yerida Ali Muhammad Muhlis vafotining taxminiy sanasini aniqlashga yordam beruvchi kichik bir fakt keltirib o'tiladi. U Boyazidning nabiralaridan biri Dodxonning valiahd Avrangzeb bilan bo'lgan ixtilof va to'qnashuvlari haqida hikoya qiladi. Uning aytishicha Xodi Dodxon Ali Muhammadning eng yaqin do'sti Rashidxonning akasi bo'lib, hijriy 1069-yilda (mil. 1659-yilda) Avrangzeb taxtga o'tirganidan bir yil o'tib kasallikdan vafot etgan. Shu narsa ma'lum bo'ladiki, XVII asrning 50-yillari oxirida Ali Muhammad Muhlis hali hayot bo'lgan. U Davlat Lavoniydan avval vafot etgan. Uning vafotining taxminiy sanasi mil. 1670-yil deb ko'rsatiladi. Davlat Lavoniy Ali Muhammadning o'limiga bag'ishlab marsiya yozgan. Ammo unda aniq sana ko'rsatilmagan.<sup>2</sup> Bu o'rinda Davlat Lavoniy va Ali Muhammad yaqin do'st va hamfikir bo'lganliklarini ko'rishimiz mumkin. Buni Ali Muhammad devonidagi she'rlarda Davlat Lavoniyning nomi uch marotaba tilga olingani tasdiqlashi mumkin. U bir g'azalida shunday yozadi: "Davlat Vali bilan

---

<sup>1</sup> Маннанов А.М. Рошанийская литература. Ташкент, 2006. Стр.134.

<sup>2</sup> Raverty H.G. Selections from the poetry of the afghans from the 16<sup>th</sup> to the 19<sup>th</sup> century. London, 1812. P.80.

suhbatlashish - katta boylikdir.” Ali Muhammad Davlat Lavoniy haqida “Holnoma”da ma’lumot beradi. Bundan shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, shoir va tarixchi Ali Muhammad Muhlis 1585-1665 yillarda yashab ijod etgan. Muhlisning otasi Abu Bakr Qandahoriy (Shinvoriy) Boyazid Ansoriyning sadoqatli muridlaridan biri bo’lgan. U Boyazidning o’g’li Jaloliddin bilan do’st bo’lgan va ular bilan ko’plab janglarda qatnashgan. Shoh Jahongir boshqaruvi davrida u Jaloliddinning o’g’li Ilohdod bilan Tiraxdan Hindistonga ketadi va Shamsobodga joylashadi. Ali Muhammad ham shu yerda – Shamsobodda tug’iladi. Keyinchalik u Dekanga ketadi. Ali Muhammad Muhlis “Holnoma”da bir necha marotaba Boyazid Ansoriyning nabiralari va keying avlodlari bilan o’zining yaqin aloqalari haqida gapiradi.<sup>1</sup>

Vosil Roshaniy – roshaniy mualliflar orasida uncha mashhur bo’lmagan shoirdir. O’tgan asrning 70 – yillari boshlariga qadar afg’onshunoslar u haqda faqatgina Xushholxon Xattak, Ashrafxon Hijri, Kozimxon Shaydo va boshqa XVII-XVIII asr shoirlarining esdaliklari orqaligina biladilar.<sup>2</sup> U haqda XVII asrning mashhur forsiyzabon shoiri Foni Kashmiriy o’zining “Dabiston al - mazohib” asarida gapirib o’tadi. U roshaniylar haqidagi bir qancha ma’lumotlarni Vosil Roshaniyni uchratib olganligini va Boyazid Ansoriyning “Holnoma”sining bir nusxasi unda ekanligini yozgan. Ammo shoirning o’zi, ijodi haqidagi ma’lumotlar na mashhur kataloglarda va na boshqa “Holnoma” singari tarixiy – adabiy asarlarda uchraydi. Faqatgina 1975-yilda Kobulda “Vosil Roshaniyning bir qancha she’rlari” nomli to’plamida shoirning she’rlari birinchi marotaba nashr etildi.<sup>3</sup> Vosil Roshaniyning she’rlari Qandahordan topilgan. 1983-yilda Zalmay Xivadmul Hindistondagi Rampur kutubxonasidan shoirning qo’lyozma devonini topadi. U hijriy 1186-yilda (mil. 1772/73-yilda) yozilgan. 1986-yilda Zalmay Xivadmul Hindistondan olib kelingan ushbu devonning nusxasi asosida o’z so’zboshisi bilan shoirning devonini nashr ettiradi.

---

<sup>1</sup> Маннанов А.М. Рошанийская литература. Ташкент, 2006. Стр.135.

<sup>2</sup> Маннанов А.М. Рошанийская литература. Ташкент, 2006. Стр.144.

<sup>3</sup> Маннанов А.М. Рошанийская литература. Ташкент, 2006. Стр. 145.

Vosil Roshaniyning shaxsiyati haqida deyarli hech narsa ma'lum emas. Shoirning she'rlari asosida Zalmay Xivadmul uning bangash urug'iga mansub ekanligini taxmin qilgan. Bu urug' Boyazidga aloqador bo'lgan. Uning ko'plab a'zolari roshaniylar harakatida faol qatnashishgan. "Holnoma"da bu urug' a'zolarining roshaniylar bilan aloqalari haqida ma'lumotlar uchraydi. Hech shubhasiz Boyazid Ansoriy shogirdlarining orasida bangashilar ham bo'lgan. Ular Boyazidning avlodlari qatorida halok bo'lishgan.<sup>1</sup> Hozircha shoirning ijodi, haqiqiy ismi, tavalludi va vafoti sanasini aniqlashning imkoni yo'q. Foni Kashmiriyning "Dabiston al - mazohib" asarida keltirilgan ma'lumotlarga tayanib Zalmay Xivadmul Vosilni milodiy 1653-yilgacha yashagan deb taxmin qiladi. Bundan ma'lum bo'ladiki, shoir Ali Muhammad Muhlisning zamondoshi bo'lgan. Nima uchun Arzoniy, Mirzaxon Ansoriy, Davlat Lavoniylar tilga olingan "Holnoma"da Ali Muhammad o'zi bilan bir hududda yashagan zamondoshini tilga olmagan? Buning ustiga u bangashiylar yashovchi hududlarda uzoq vaqt istiqomat qilgan. Boyazid Ansoriyning nabirasi Rashidxon hayotidagi voqea – hodisalarni bir necha bor to'liq yozgan. Bundan uni o'z davrining mashhur shoiri bo'lmagan degan xulosaga kelishimiz mumkin. Vosil Roshaniy roshaniylar harakatining bevosita va faol ishtirokchisi bo'lmagan.<sup>2</sup> U o'zining butun ijodida roshaniylarning g'oyalarini qo'llab – quvvatlasada uni jamiyatning yetuk siymosi deb hisoblashmagan. U Ali Muhammad va Davlat Lavoniydan biroz keyinroq yashagan va ijod qilgan. U roshaniylar harakati faol olib borilgan hududlardan ajralgan joyda istiqomat qilgan. Bu joy Ollohobod yoki boburiylarning poytaxt shaharlari bo'lishi mumkin.

Vosil Roshaniyning ijodi rang – barangdir. U diniy – sufiylik, odob – axloq va ishq – muhabbat mavzularida ijod qilgan. U o'z davrining kamchiliklarini qo'rqmay tanqid qilgan. Diniy ruhoniylar, o'z manfaatini ko'zlovchi odamlar va Yaratganni tushunmaydiganlar ustidan kuladi. Uning ijodining markazida sufiylikning "yagona borliq" konsepsiyasi turgan. Vosil Roshaniy "yagona borliq"

---

<sup>1</sup> Маннанов А.М. Рошанийская литература. Ташкент, 2006. Стр.145.

<sup>2</sup> Raverty H.G. Selections from the poetry of the afghans from the 16<sup>th</sup> to the 19<sup>th</sup> century. London, 1812. P.82.

asosining izohida Arzoniy, Mirzaxon Ansoriy, Ali Muhammad Muhlis singari u qadar ochiq va to'g'riso'z emasdi. Uning fikr – mulohazalari ko'pincha yashirin bo'lgan. Uning asarlarida Boyazid Ansoriyning nomi to'g'ridan – to'g'ri tilga olinmagan. O'sha davrda roshaniylarning muxoliflari tomonidan Boyazid Ansoriyning nomi “bid'at” sifatida keng tarqatilgan va Vosil buni bilgan. U o'zining xavfsizligi uchun roshaniylar sardoriga ochiq – oydin ergashmagan. Ammo uning she'riyatida ularning ta'siri sezilib turgan. Shu bilan birga uning devonida roshaniylar harakatining tarafdorlari va Mirzaxon Ansoriy va uning nabirasi Kamolxon singari roshaniylar adabiyot vakillarining nomlari ko'rsatilgan. Vosil Roshaniy ularning vafotiga atab g'amgin g'azallar ham yozgan.

Yuqorida tilga olingan roshaniy shoirlar XVI-XVIII asrlar afg'on adabiyotining yetuk siymolari hisoblanadilar. Ularning tarjimai hollari bilan tanishib shunday xulosaga keldimki, ular afg'on adabiyotida pushtu tilini asosiy ijod tiliga aylantirdilar. Ular yaratgan asarlar xalq ma'naviyatining yuksalishiga samarali ta'sir ko'rsatdi. Bu shoirlar o'zlarining kamtarinligi, oliyjanoblighi bilan ham xalq qalbidan chuqur o'rin olgan edilar. Bunga misol tariqasida Boyazidning nabirasi Mirzaxon Ansoriyni ko'rsatishimiz mumkin. Bu shoirlarning barcha asarlari Pir roshanning g'oyalari, ta'limotlari asosida yozilgan. Ularning asarlarida tenglik, birodarlik, o'zaro bir – biriga hurmat singari oliyjanob tuyg'ular kuylangan. Ular afg'on jamiyatining haqiqiy qahramonlari hisoblanadilar. Ular yaratgan asarlar afg'onlarni o'z mustaqilligi uchun kurashishga da'vat etgan va bu asarlar chin ma'noda afg'on adabiyotining xazinasi hisoblanadi.

## **II.2. Xushholxon Xattakning boburiylar imperiyasi bilan munosabatlari**

Xushholxon Xattak (1613-1691 y.y) - Akora shahrida tug'ilgan. Roshaniylar adabiyot maktabining yirik vakili, afg'on shoiri va mutafakkiri. Afg'onlarning xattak qabilasi boshlig'i, 1641-yildan boburiylarga qaram bo'lgan Akora viloyatining hokimi. U afg'on qabilalarini birlashishga da'vat etgan, xalqning milliy ozodlik harakatiga boshchilik qilgan, yurtdoshlarini o'z mustaqil milliy davlatlarini tuzishga chaqirgan. Ta'sirchan she'riyati bilan xalqni kurashga ruhlantirgan. Milliy afg'on tili (pushtu)da fors-tojik mumtoz adabiyoti an'analarini mujassamlashtirgan go'zal she'riyat yaratgan. Asarlarida birodarlik, do'stlik, ishq – muhabbat, mustaqillik, odob – axloqni kuylagan. Xushholxon Xattak yaratgan adabiy maktab afg'on adabiyotining keyingi taraqqiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatgan.<sup>1</sup>

Hindiston shohi Shoh Jahon Xushholxon Xattakni ochiqchasiga hurmat qilishiga qaramay, Xushholxon boburiylar hukumatining pushtunlarga nisbatan ishonchsizligi ortib borayotganidan xabardor edi. U bu ishonchsizlikning natijasini o'z harbiy lavozimidan chetlatilgan yoki quyi martabalar bilangina qanoatlanishga majbur bo'lgan sabotli va g'ayratli afg'on yoshlari misolida ko'rdi. Xushholxon shuningdek, uni boshqa pushtun qabilalariga ayniqsa yusufzoy qabilalariga qarshi gij – gijlovchi boburiylarning hiyla – nayranglaridan ham boxabar edi.<sup>2</sup> Ayni paytda uning “siyosiy missiyalar” deb atash mumkin bo'lgan sayohatlarida Xushholxon boshqa qabilalar yetakchilari bilan faoliyat boshladi va Hindiston pushtun imperiyasi go'zalligining yo'qolishi hamda bu imperiyaning qulash sabablari haqida suhbatlashdi. U roshaniylar harakati, “Yorug'lik otasi” (Boyazid Ansoriy)ning boburiylarga qarshi olib borgan keskin qarshilik harakatlarini hamda bu harakatning muvaffaqiyatsizlikka uchrash sabablarini o'rgandi. U boburiylar tomonidan berilgan poralar, yuqori mansab va unvonlar hamda turli mol – mulk

---

<sup>1</sup> “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Toshkent, 2005. 524 – bet.

<sup>2</sup> Masoma Esmati. Khushal Khan's political campaign. Translated by: Abdul Salam Shayek. Pashto quarterly. Kabul, Afghanistan, 1980. P 106.

evaziga o'zlarini sotgan xonlar (yer egalari), maliklar (qishloq oqsoqollari) va shayxlar (diniy yetakchilar) haqida xabardor bo'ldi. Bu shaxslar guruhi boburiylar hukumati mustamlakachilik siyosatining asosi hamda oddiy xalqning boburiylardan og'ir tashvishlarni boshlaridan o'tkazishlariga sabab bo'ldilar. Xushholxonning da'vati ostida pushtun qabilalari birlashdilar va boburiylar hukumatiga qarshi shiddatli va ayovsiz kurash boshladilar. Xushholxon bu holatni quyidagicha izohlaydi: "Boburiylar afg'onlarga adovatlidirlar. Men ularning har bir o'y fikrlaridan xabardorman."<sup>1</sup>

Yuqorida aytib o'tilganidek, Shoh Jahon Xushholxon bilan do'stona munosabatda bo'lishga harakat qilgan. O'z navbatida Xushholxon ham uning mardligi hamda aqliy iste'dodidan yaxshi xabardor edi. Avrangzeb Olamgir (1658-1707 y.y) otasini taxtdan ag'darib zindonband qildi, o'z aka-ukalarini ham zindonga tashladi va ularning bir nechtasini qatl ettirdi. U qisqa muddat mobaynida Xushholxon bilan yaxshi munosabatda bo'ldi. Ammo u xudbinlik va shuhratparastlikka berilib, boshqa qabila boshliqlariga qarshilik ko'rsata boshladi. Ularning ichida Xushholxon ham bor edi.<sup>2</sup> Qarshiliklar boshlandi va bu qarshiliklar Hindistondagi ikki afg'on imperatori hamda Sher Shoh Sorining muammolariga sabab bo'ldi. Ushbu ma'naviy buzilishlar hatto Xushholxonning oilasi, aka-ukalari va o'g'illari ayniqsa o'g'li Bahromxonga ta'sir ko'rsatmay qolmadi. Ularga turli-tuman sovg'alar va yuqori mansablar hadya etildi.

Kobul hokimi Saidmir Xavofi Xushholxonni o'zining o'rinbosari sifatida tanlagandek qilib ko'rsatib hiyla ishlatdi va uni maslahatlashish uchun Peshovarga chaqirdi. Xushholxon Peshovarga kelishi bilanoq hibsga olindi va mahbus sifatida Dehliga jo'natildi. Xushholxon bu voqeaga quyidagicha izoh berdi:

Boburiylar meni hiyla yo'li bilan har taraflama qurshovga oldilar.

Men ular tomonidan shunchalar osonlik bilan qo'lga olindim."<sup>3</sup>

---

<sup>1</sup> The Moghuls antagonistic are to the Pashtuns  
I'm aware of their thoughts one by one.

Masoma Esmati. Khushal Khan's political campaign. Translated by: Abdul Salam Shayek. Pashto quarterly. Kabul, Afghanistan, 1980. P 107.

<sup>2</sup> Masoma Esmati. Khushal Khan's political campaign. Translated by: Abdul Salam Shayek. Pashto quarterly. Kabul, Afghanistan, 1980. P 108.

<sup>3</sup> All around the Moghuls blockaded me by trickery,

Boshqa joyda bunday deydi:

U meni uzoq yilga ozodlikdan mahrum etdi,

Bu mening aybim emasligini Xudo biladi.

Men Avrangzebning zindoniga nohaq bandi bo'ldim,

Bu shunchaki ustunlik bo'lganini Xudo biladi.”<sup>1</sup>

Bu voqeadan so'ng Xushholxon oilasi va Ko'ragoniylar (Akbarshohdan Avrangzebgacha) sulolasi o'rtasida mavjud bo'lgan sakson besh yillik do'stlik aloqalariga darz ketdi. Xushholxon va Avrangzeb o'rtasidagi ixtiloflar butun jamoatchilikka ma'lum edi.

Xushholxon hibsga olinganda shuni tushunib yetdi-ki, shaxsiy kuch-qudrat, manfaat, boylik va yuqori mansab inson shaxsiyatining dushmanlaridir. U barcha feodal va mustamlakachi hukumatlar hamda ularni qo'llab – quvvatlovchi shaxslar shaxsiy kuch-qudratga tayanishlarini fahmladi. Uning fikricha Xushholxon singari qat'iyatli shaxsiyat egasi ularni qabul qilmasligi lozim.<sup>2</sup>

Boburiylar hukumatidagi boshboshdoqliklar, ixtiloflar va turli hiylanayranglarning barchasi Xushholxonga ma'lum bo'la boshladi va u boburiylar hukumatining haqiqiy qiyofasini brogan sari teranroq fahmlay boshladi. Shuning uchun u o'zining so'nggi qarorini va kelajakdagi siyosatini quyidagicha e'lon qildi:

“Zindondan ozod bo'lgach Xushhol, Makkaga ketadi yoki boburiylar bilan kurashadi. Tog' burchagiga chekinadi, yoki ibodatga berilib ilm bilan shug'ullanishni hiyat qiladi.”<sup>3</sup> Xushholxon qamoqdaligida o'z kelajagi uchun

---

So easily I was seized by them as ordained.

Masoma Esmati. Khushal Khan's political campaign. Translated by: Abdul Salam Shayek. Pashto quarterly. Kabul, Afghanistan, 1980. P 108.

<sup>1</sup> He imprisoned me unjustly for years,

God knows that I know not my fault

I'm locked in the prison of Aurangzeeb unjustly,

God knows that it was just a columny.

Masoma Esmati. Khushal Khan's political campaign. Translated by: Abdul Salam Shayek. Pashto quarterly. Kabul, Afghanistan, 1980. P 108.

<sup>2</sup> Masoma Esmati. Khushal Khan's political campaign. Translated by: Abdul Salam Shayek. Pashto quarterly.

Kabul, Afghanistan, 1980. P 110.

<sup>3</sup> After getting out of the jail,

Khushal intends so strongly

Either to go to Mecca,

Or fight the Moghuls

Or retire to a corner of the mountain,

rejalar tuzadi. U o'zining 250 ta she'rni o'z ichiga olgan "Hibsnoma" nomli kitobida shunday deydi:

"Men 220 bandlik she'r bilan Rantaborda (zindonning nomi) qalbidagi alangani o'chirdim."<sup>1</sup>

Uning aniq maqsadi yo'q edi. Ammo o'z odamlarini qo'zg'atish va ularni kurashga tayyorlash maqsadi bor edi. U o'z she'rlarida dushmanlarining sirlarini oshkor qilib, ularni tanqid ostiga oldi va afg'onlarning mardligi va jasurligiga hamd – u sanolar o'qidi. U o'z tarafdorlarini birlashishga va ixtiloflardan voz kechishga da'vat etdi. Ayniqsa qabiladoshlarining hukumat tomonidan berilgan mansab va unvonlar evaziga dushmanlarining hokimiyatini tan olishlarini qattiq qoralagan. U bu holatni quyidagicha izohlaydi:

"Ular o'z qirolliklarini boburiylarning oltinlariga sotdilar va boburiylar hukmronligi ostida yuqori mansablarni egallamoqchi bo'ldilar."<sup>2</sup>

U boburiylarning afg'onlar orasiga nifoq solish va ularni o'zlariga og'dirib olish uchun qilgan sarf – xarajatlarini quyidagicha ta'riflaydi:

"Hindiston boyliklari bu yerda oqizildi. Qizil tyulenlar tog' yonbag'rlariga kirib keldilar."<sup>3</sup>

Xushholxon o'z o'g'li va jiyanining xiyonati natijasida hibsga olinishini she'rlarida alohida ko'rsatib o'tadi va bu haqda hikoya ham yozadi. U o'g'li va amakisini boburiylar tomonidan berilgan poralar va yuqori mansablar evaziga sotilganlikda ayblaydi. U bu she'rida uni Peshovardan Dehliga mahbus sifatida

---

Or pray fast and study.

Masoma Esmati. Khushal Khan's political campaign. Translated by: Abdul Salam Shayek. Pashto quarterly. Kabul, Afghanistan, 1980. P 110.

<sup>1</sup> With two hundred twenty couplets,

I extinguished the flames of

My heart in Rantabour (jail).

Masoma Esmati. Khushal Khan's political campaign. Translated by: Abdul Salam Shayek. Pashto quarterly. Kabul, Afghanistan, 1980. P 111.

<sup>2</sup> They sold their own kingdom for Moghul gold,

And desire to acquire ranks under the Moghols.

Masoma Esmati. Khushal Khan's political campaign. Translated by: Abdul Salam Shayek. Pashto quarterly. Kabul, Afghanistan, 1980. P 112.

<sup>3</sup> The treasures of India have been poured in here,

Red seals enter the mountainsides.

Masoma Esmati. Khushal Khan's political campaign. Translated by: Abdul Salam Shayek. Pashto quarterly. Kabul, Afghanistan, 1980. P 112.

olib ketganliklarini bayon etadi. U bu sayohati haqida aniq tafsilotlar berib o'tadi. Bu she'rdan shuni tushunish mumkin – ki, uning hibsga olinishi ma'lum bir xatti – harakat uchun emas balki boburiylar bilan kelishish uchun edi. U yuqoridagi holatni quyidagicha izohlaydi:

“Ikki taraf shu kelishuvga keldilar: boburiylar va oriyatsiz amakilar. Mening ahmoq o'g'lim afsuski ularga og'ib ketdi.”<sup>1</sup>

Boshqa bir joyda esa shunday deydi:

“Tarafdorlarim menga nayzalarini sanchayotgan chayonlarga aylandilar. Ular mening xo'rlanishimdan qoniqish hosil qildilar. Ular meni boburiylar orqali qamoqqa oldilar. Ular qabila sardorlari bo'lishga va yuqori martabalarga intildilar. Ular poralarni qabul qildilar va kun – u tun tinim bilmay ishladilar. Ular meni Sind provinsiyasiga eltdilar va o'zlarini baxtli va shodon his etdilar. Bugun mening uyimda butun dunyoni hayratga soladigan qayg'u-g'am hukmron.”<sup>2</sup>

Keyin esa o'g'li haqida shunday deydi:

“Noqobil o'g'illar otalarining yo'llarida tikanak o'stiradilar. Qobil o'g'illar hamisha gulzor bog'lar o'stiradilar.”<sup>3</sup>

Xushholxon qamoqqa tashlandi, ammo uning ozod ruhi zindon devorlar orasida bandi bo'lmadi. Mardligi va orzu – istaklarining burguti qanotlarini yozdi

---

<sup>1</sup> Both sides made this agreement,  
The mean Moghuls and the shameful uncles.  
My foolish son was badly deviated.  
Masoma Esmati. Khushal Khan's political campaign. Translated by: Abdul Salam Shayek. Pashto quarterly. Kabul, Afghanistan, 1980. P 113.

<sup>2</sup> My folks became scorpions stinging me,  
They were satisfied that I was insulted.  
They imprisoned me by the Moghols,  
They went after chieftainship and high ranks.  
They accepted bribes  
And worked hard day and night  
They sent me Sindh province  
And themselves became happy and joyful.  
Today there's so much grief in my home.  
That makes all the world astonished.  
Masoma Esmati. Khushal Khan's political campaign. Translated by: Abdul Salam Shayek. Pashto quarterly. Kabul, Afghanistan, 1980. P 114.

<sup>3</sup> The unworthy sons plan thrones in the path of their fathers,  
The worthy sons flower gardens flourish all the time.  
Masoma Esmati. Khushal Khan's political campaign. Translated by: Abdul Salam Shayek. Pashto quarterly. Kabul, Afghanistan. 1980. P 114.

va tog'larning baland cho'qqilari uzra parvoz qildi. Uning vatanparvarligi va afg'on ekanligini his etishi hali – hanuz kuchli edi. U o'zining mahbuslik kunlari haqida quyidagilarni yozadi:

“Hattoki agar taqdir mening dushmanim bo'lganda ham fillar va qonxo'r sherlar ham bandi qilolmaydi.”<sup>1</sup>

Yoki:

“Qayg'u – g'am biror sababsiz yuzaga kelmaydi. Qayg'u munofiq odamdan haqiqatni ajratib ko'rsatish uchun turtkidir. Sherning jasurligi to'daga bog'liq emas. U har doim o'ziga (kuchiga) tayanadi.”<sup>2</sup>

Xushholxon qamoqdaligida boshqa bir voqea sodir bo'ldi. Avrangzeb Xushholxonning oilasi va mol – mulkini garov sifatida Dehliga jo'natishlarini buyurdi. Lekin yusufzoy qabilalari uning yaqinlarini himoya qildilar va hukumat ularni Dehliga jo'natishning uddasidan chiqa olmadi. Bu voqea yusufzoy qabilasi va Xushholxon oilasi o'rtasidagi mustahkam aloqalarning isboti bo'ldi.<sup>3</sup>

Xushholxon bu holatga quyidagicha izoh berib o'tadi:

“Men yusufzoilar uchun halokatli zahar singari edim. Menda boburiylarga xizmat qilish maqsadi yo'q edi. Men mushkul vaziyatda ekanligimda yusufzoilar keldilar.”<sup>4</sup>

Xushholxon ozod etilib Muhabbat Xon Kobul hokimi etib tayinlanganda Avrangzeb yusufzoilar isyonini bostirish uchun Xushholxondan foydalanmoqchi

---

<sup>1</sup> Elephants in rut and bloody lions couldn't chain,

Eve if the fate becomes my enemy.

Masoma Esmati. Khushal Khan's political campaign. Translated by: Abdul Salam Shayek. Pashto quarterly. Kabul, Afghanistan, 1980. P 115.

<sup>2</sup> Grief was not created without any reason,

Grief is a touchstone to distinguish a real

From false man,

The bravery of a lion does not depend on troops,

He always relies on his own (strength).

Masoma Esmati. Khushal Khan's political campaign. Translated by: Abdul Salam Shayek. Pashto quarterly. Kabul, Afghanistan, 1980. P 116.

<sup>3</sup> Khushal Khan's political campaign. Masoma Esmati. Translated by: Abdul Salam Shayek. Pashto quarterly. Kabul, Afghanistan. 1980. P 110.

<sup>4</sup> I was like a fatal poison for the Yousufzays,

I had no other aim in serving the Moghuls.

The Yousufzays came when I was in difficulty.

Khushal Khan's political campaign. Masoma Esmati. Translated by: Abdul Salam Shayek. Pashto quarterly. Kabul, Afghanistan 1980. P 116.

bo'ldi. Shuning uchun u Xushholxonga yusufzoilar hukumatini taklif qildi. Xushholxon bu taklifni ikki sabab tufayli rad etdi:

1. U shohning xatarli maqsadidan boxabar edi. U bu holatni quyidagi jumllarda bayon etgan:

“Do'stning qo'llab – quvvatlashidan umid bo'lmaganda, qanday qilib dushmanning tilyog'lamaligiga ishonish mumkin.”<sup>1</sup>

2. U boburiylar bilan barcha aloqalarni uzishga, ekspluatatsiya va mustamlakachilik bilan hayotining so'nggi lahzasigacha kurashishga va o'z xalqining madaniyatini, urf – odatlarini unutmaslikka qaror qilgan edi.

U bu qarorini Muhabbatxonga yozgan javob xatida quyidagicha izohlaydi:

“Agar men hozir yusufzoilar bilan qarshi bo'lsam, bu g'ayriinsoniy va g'ayripushtun xatti – harakat bo'ladi. Bunday harakat esa mening yomon otliq bo'lishimga sabab bo'ladi.”

Quyidagi qatorlarda uning bu qarorining sabablari aks etgan:

“Agar boshqa boylarga hasad qilmasangiz, siz tilanchi bo'lsangiz ham sizning qirolligingiz ulug'vordir. Siz faqat shodlikda obro' – etibor qidirishingiz mumkin. Ochko'zlik muammo tug'diradi.”<sup>2</sup>

U boburiylar lashkarlarinig qal'asi qurilishi haqida bunday deydi:

“Boburiylar lashkar qal'asi qurdilar. Men afg'onlarning sha'nini himoya qila boshladim. Bu yusuf yoki mondar bo'lganda ham, men bu ikkisining himoyachisi bo'lardim.”<sup>3</sup>

---

<sup>1</sup> When there is no hope of a friend's favors,  
How could one rely on the enemy's flattery.  
Khushal Khan's political campaign. Masoma Esmati. Translated by: Abdul Salam Shayek. Pashto quarterly. Kabul, Afghanistan, 1980. P 117.

<sup>2</sup> If you do not covet others riches,  
Felicitation for your kingdom even if you are beggar.  
You can seek honour only in contentment,  
It's greed that creates adversity.  
Masoma Esmati. Khushal Khan's political campaign. Translated by: Abdul Salam Shayek. Pashto quarterly. Kabul, Afghanistan, 1980. P 118.

<sup>3</sup> The Moghols built the Lashkar Kote,  
I began to defend the honor of Afghans.  
Whether it were Yousof or Mondar,  
I became the guardian of both.  
Masoma Esmati. Khushal Khan's political campaign. Translated by: Abdul Salam Shayek. Pashto quarterly. Kabul, Afghanistan, 1980. P 118.

Xushholxon Avrangzebning taklifini rad etganda, bu Avrangzebga qarshi urush boshlanajagining tantanali e'lon qilinishi edi.

Xushholxon aytganidek:

“Dunyoda hech narsa afg'onni boburiyga aylantira olmaydi. Ularga bu orzularidan voz kechishlarini ayt! Agar kimdir fillar va sherlar orasiga tinchlik olib kelishni niyat qilsa, u mag'rur bo'lishga harakat qiladi. O o'lim! Shamshirimni dushmanlarimning qoni bilan bo'yagunimcha, menga uzoq muddat bergin.”<sup>1</sup>

Xushholxon boburiylar hukumatiga qarshi qattiq kurash boshladi. Otasidanda zolim bo'lgan Avrangzeb hiyla yordamida o'z nazoratini Peshovargacha kengaytirishni xohlardi. Shuning uchun u qabila sardorlariga hujum qildi. Afg'onlar boburiylarning yomonliklariga shunday javob qaytardilar - ki, ularning pistirmadan qilgan hujumlari boburiylarning lashkarlarini larzaga soldi. Bu isyon tarixda muhrlanib qolgan eng muhim tarixiy hodisa hisoblanadi.

Milodiy 1672 – yilda Kobul hokimi Muhammad Amin Xonga qarshi Emol Xon boshchiligida Haybarda momand, shinvoriy va afridiylar kurash boshladilar va bu jangda Muhammad Amin Xon mag'lub etildi. Bu jangni tarix hech qachon unutmaydi.<sup>2</sup>

Xushholxon boburiylar hukumati bilan yuzma – yuz kelganda Avrangzeb Xushholxonning o'z o'g'li Bahrom Xonni otasi bilan har jabhada qarama – qarshi qilib qo'yish maqsadida o'z siyosiy hiylalarini ishga soldi. U bu haqda quyidagicha fikr bildiradi:

“Boburiylar va afg'onlar orasida hali ham notinchlik mavjud. Hamma narsani tartibga solish uchun men qishlog'imda rol o'ynadim. Men mardlik pordevoriga asos solganimda, u qo'rqqoqlik tomonidan vayron etildi. U boburiylarga hamd – u sanolar aytdi va otasiga pand bergani uchun mukofot talab

---

<sup>1</sup> Nothing in the world would change a Pashtun into a Moghol,

Tell them to give up such hopes.

If one wishes to bring peace between elephants and lions,

He will be trying in vain.

O' death give me so much time,

Until I could color my sword with the enemy's blood.

Masoma Esmati. Khushal Khan's political campaign. Translated by: Abdul Salam Shayek. Pashto quarterly. Kabul, Afghanistan, 1980. P 119.

<sup>2</sup> The Anthology of Khushal Khan Khatak. Dost Mohammad Kamiel printed in Peshawar. 1980. P.85.

qildi. (Bu yerda Xushholxonning o'g'li Bahrom Xon nazarda tutilmoqda) Qaniydi men bundan butunlay bexabar bo'lsam yoki bu dunyoda yashamayotgan bo'lsam."<sup>1</sup>

Qisqacha aytganda, Xushholxon afriidiylar, momandlar va boshqa qabilalar yordami bilan bir nechta muvaffaqiyatli va muvaffaqiyatsiz kurashlarini davom ettira oldi. Xushholxon bu jarayonga quyidagicha tafsilot beradi:

“Karlani va surbanilar afg'onlardirlar. Men bu sharafni ikkisi bilan bo'lishaman. Momandlar menga yordam qo'lini cho'zdilar. Men afriidiylarning ko'magidan minnatdorman. Men afg'onlarning sha'nini himoya qilish uchun qilichimni chiqardim. Men, Xushholxon Xattak, o'z davrimning qadr – qimmat himoyachisiman.”<sup>2</sup>

Xushholxon afriidiylarning katta armiyasi vositasida Kohat bilan to'qnash keldi. Ammo Bangishdagi oqsoqollar yig'ilishi unga xalal berdi va uning rejalarini o'zgartirishiga sabab bo'ldi. Emol Xon tomonidan boshqarilgan boshqa armiya Karapada Avrangzebning kuchaytirilgan qo'shinlariga zarba berdi. Avrangzebning xafsalasi pir bo'ldi va shaxsan Hasan Abdulning huzuriga borishga qaror qildi. Bu tarixiy hodisa haqida Xushholxon bunday yozadi:

“Voqealar hech qachon inson hayoliga kelmaydi. Bunday voqea – hodisalar dunyoda sodir bo'lib turadi. Shoh Avrangzeb g'azabga to'lib Lahorga keldi. Kim

---

<sup>1</sup> There is still the same tumult,  
Among Moghuls and the Afghans.  
I play a role in my country,  
To put things in order.  
When I lay the foundation of bravery,  
Its ruined by the coward.  
He salutes the Moghols,  
And claim credit for doing wrong to his father.  
I wish I were either unconscious completely,  
Or I were not living in the world.  
Masoma Esmati. Khushal Khan's political campaign. Translated by: Abdul Salam Shayek. Pashto quarterly. Kabul, Afghanistan, 1980. P 120.

<sup>2</sup> Karlani and surbani are Pashtuns.  
I share this honor with both.  
The mohmands have given me a helping hand,  
I am grateful to the assistance of the afridis.  
I have taken my sword to defend the Afghan's honor,  
I am, Khushal Khan, the honor defender of my time.  
Masoma Esmati. Khushal Khan's political campaign. Translated by: Abdul Salam Shayek. Pashto quarterly. Kabul, Afghanistan, 1980. P 120.

muvaffaqiyatga erishishini – yu, kim barbod bo’lishini Yaratgan biladi.”<sup>1</sup> Keyin esa quyidagi jumllarida o’z qarori haqida bayon qiladi:

“Mard insonning dunyoda faqatgina ikkita imkoniyati bor: yo boshidan ayriladi, yoki o’z maqsadiga erishadi.”<sup>2</sup> Bu yerda har kim o’zgalarning qayg’u va quvonchlariga bee’tibor bo’lgan shaxs bilan “o’lim yoki ozodlik” shiorini hayqirib aytuvchi, barcha yulg’ichlikka barham berishni anglatuvchi haqiqiy ozodlik uchun kurashuvchi va mamlakatning avvalgi qudratini o’zida aks ettiruvchi milliy hukumatni tashkil etish, xorijiy hukumatning barcha ko’rinishlariga barham berish, xalq ozodligini qo’lga kiritish uchun kurashuvchi shaxs o’rtasidagi tafovutni bemalol farqlay oladi.

Xushholxon va Avrangzeb o’rtasidagi bu siyosiy kurashlar goh unisining goh bunisining foydasiga hal bo’ldi. Avrangzebda yaxshi ta’minlangan armiya, boylik va o’zgalarga taklif etish uchun yuqori mansablar bor edi. Xushholxonda esa faqatgina qo’lida qilichi, haqiqiy milliy iftixori va mustaqil hayot uchun kuchli xohish – istagi bor edi xolos. U bu borada bunday deydi:

“Mening yagona maqsadim – hattoki butun yo’lim qonga belansa – da, o’z maqsadimga erishishdir.”<sup>3</sup> Avrangzeb Hasan Abdul huzuriga yetib kelib, afg’onlar orasiga nifoq solish maqsadida o’zining razil taktikalari, hiylalari, poraxo’rliklari va yer egaligiga takliflarini boshladi. Xushholxon aytadi:

“Bu yuqori mansablar, bu mukofotlar – barchasi tuzoq, barchasi sirtmoq.”<sup>4</sup> Xushholxon o’z orzu – istaklari to’g’risida quyidagicha gapiradi:

“Agar mening yog’siz sut bilan aralashtirilgan arpadan ovqatim bo’lsa, men uni hech qachon boburiylar istilo etgan yerlarga almashmayman. Agar men yoz

---

<sup>1</sup> The Anthology of Khushal Khan Khatak. Dost Mohammad Kamiel printed in Peshawar. 1980. P.88.

<sup>2</sup> A brave man in the world has only two possibilities.

He either loses his hesd or attains his goal.

Masoma Esmati. Khushal Khan’s political campaign. Translated by: Abdul Salam Shayek. Pashto quarterly. Kabul, Afghanistan, 1980. P 121.

<sup>3</sup> My only aim is to attain my goal.

The Anthology of Khushal Khan Khatak. Dost Mohammad Kamiel printed in Peshawar. 1980. P.89.

<sup>4</sup> These high ranks, these rewards,

Are all gallows, are all traps.

Masoma Esmati. Khushal Khan’s political campaign. Translated by: Abdul Salam Shayek. Pashto quarterly. Kabul, Afghanistan, 1980. P. 122.

mavsumida sovuq yog'siz sut ichsam, Avrangzebning butun podsholigini larzaga keltira olaman."<sup>1</sup>

Xushholxon bir necha janglarda mag'lubiyatga uchraganiga qaramay uning vatanparvarlik tuyg'ulari kundan kunga o'sib bordi. G'azab va jaholatga to'lib toshgan Avrangzeb bir guruh afg'onlarni Xushholxonning homiyligidan mahrum qildi. Xushholxon aytadi: "Boshqa yo'l yo'q. Yoki biz boburiylarni haydab chiqaramiz yoki afg'onlar azob chekishda davom etadi."<sup>2</sup> Xushholxon men bu qisqa maqolada yozishdan biroz chekingan uzoq muddatli urushlarini hikoya qilib bergan. Bu to'plam Xushholxonning milliy iftixori va orzu – istaklarini namoyon etishda yordam bergan(muallif).<sup>3</sup> Shuningdek Xushholxon janglarda unga qo'shilgan bir nechta qahramonlarning nomlarini ham eslatib o'tadi. Quyidagi jumalarda Xushholxon mast holda o'tiradi va sevinch va quvonch bilan qadah to'ldirib may ichadi va aytadi: "Bu yerda va ana u yerda gulzor bog'lar yaratgan bahor yana qayerdan keldi? Daraxtlar, yovvoyi lolalar, liliyalar va rayhonlar, jasmin, nargis gullamoqda. Meni may kuchi bilan mast qilish uchun o'soqiy, yonimga kel va menga may to'la qadahni uzat. Afg'on yoshlari lochin singari qo'llarini qizartirdilar. Panjalar qurbonlarning qoni bilan bo'yalgan. Ular afg'onlarning qilichlarini qon bilan bo'yadilar. Sumanerda lola dalalari gulladi. Yaratgan o'z yordam qo'llarini berishdan bosh tortmagan Emol Xon va Daryo Xonni duo qilgay. Ular Haybar dovonini qonga botirdilar. Urushning changi Karapagacha ko'tarildi. Barcha afg'onlar Qandahordan Atakgacha o'z sha'nlarini himoya qilishda birgadirlar: oshkora va yashirin."<sup>4</sup> U o'zining boshqa urushlari haqida quyidagilarni aytib o'tadi:

---

<sup>1</sup> If I have my simple food of barley mixed with butter milk,  
I will never change it for all the Moghul's conquered lands.  
If I drink my cold butter milk in the summer – time,  
I can shake the whole kingdom of Aurangzeeb.

Masoma Esmati. Khushal Khan's political campaign. Translated by: Abdul Salam Shayek. Pashto quarterly. Kabul, Afghanistan, 1980. P 122.

<sup>2</sup> The Anthology of Khushal Khan Khatak. Dost Mohammad Kamiel printed in Peshawar. 1980. P.89.

<sup>3</sup> Masoma Esmati. Khushal Khan's political campaign. Translated by: Abdul Salam Shayek. Pashto quarterly. Kabul, Afghanistan, 1980. P 123.

<sup>4</sup>The Anthology of Khushal Khan Khatak. Dost Mohammad Kamiel printed in Peshawar. 1980. P.90.

“Birinchi urush Lorisha va Tatar urushi edi. Unda to’rt ming boburiylar askari talandi. Ikkinchi urush Dobda Mir Hasan bilan bo’ldi. Uning boshi ilon boshiday uzib tashlandi. Keyin Navshahar Kot urushi bo’ldi. Men unda boburiylarni hushiga keltirib qo’ydim. Bundan so’ng Jasvant Singh va Shijoat Xonlar bilan jang bo’ldi. Emol Xon Kundobda ularga yaxshigina dars berdi. Oltinchi jang Mukarram Xon va Shamshir Xon bilan bo’ldi. Emol Xon Kaphishda ularni taladi. Karapadan Bajavargacha barcha tog’lar larzaga keldi va larzaga keldi, yana va yana.”<sup>1</sup>

Milodiy 1676-yilda Avrangzeb, Hasan Abdal va Xushholxon o’rtasida Dehli uchun qattiq jang bo’lib o’tdi va Dira Gonbatda Bangasho bilan bo’lgan jangda Xushholxon mag’lubiyatga uchradi. U bu borada quyidagicha fikr bildiradi:

“Menga ishoning, men Bangashoning qilichi tufayli mag’lubiyatga uchramadim. Mening Gonbatdagi mag’lubiyatim tasodif edi xolos.”<sup>2</sup> Bangasho va Xushholxon o’rtasidagi uchinchi jang Data hududida bo’lib o’tdi va Xushholxon ularni ezib tashlab mag’lub etdi. Bu voqea milodiy 1685-yilda sodir bo’ldi. Xushholxon bu jangni quyidagicha hikoya qiladi:

“Agar mening oyog’im Gonbatda sirpanib ketgan bo’lsa, mening istagim davom ettirish uchun yetarli edi. Gonbatda bo’shatilgan qadah Data jangida qayta to’ldirildi. Mening Gonbatdagi jangim afg’onlarning sha’ni uchun edi. Mening boshqa maqsadim, boshqa qasdim yo’q edi. Bu jangning ovozi asrlarga yetadi.

---

<sup>1</sup> The first war was the war of Lorisha and Tatar.  
In which four thousand Moghuls were plundered.  
The second was the war with Mir Hassan in Doab,  
Whose head was pounded like head of a snake.  
There there was war of Naw Shahr Kot  
In which I sobered up the Moghuls.  
After that wre Jaswant Singh and Shoja – at Khan,  
Whom Emal Khan taught a good lesson in Kundab.  
The sixth were both Mokaram Khan and Shamshir Khan.  
Whom Emal Khan plundered at Khapish  
All the mountains from Karapa to Bajawar,  
Shook and shook again and again.  
Masoma Esmati. Khushal Khan’s political campaign. Translated by: Abdul Salam Shayek. Pashto quarterly. Kabul, Afghanistan, 1980. P. 124..

<sup>2</sup> I am not defeated by the sword of Bangasho believe me.  
My defeat in Gonbat was a celestial one.  
Masoma Esmati. Khushal Khan’s political campaign. Translated by: Abdul Salam Shayek. Pashto quarterly. Kabul, Afghanistan, 1980. P. 124..

Barcha afg'onlar buning nomini eshitib baxtiyor bo'ladilar. Bu g'alabani xabari Hindistonda aks – sado berganda tog'dagi barcha shoh kabi mag'rur bo'ladilar. Afg'on deb atalmish shaxs o'lsa u shodlanadi. Avrangzeb mana shunday Islom shohidir”.<sup>1</sup> Boshqa joyda Xushholxon xuddi shu jang mavzusida quyidagicha gapiradi: “Gonbat qayg'usi mening qalbimni tark etdi. Xudo menga Doladada g'alaba quvonchini tortiq qildi.”<sup>2</sup>

Xushholxonning maqsadi Hindistondagi boburiylar davlatini ag'darib tashlash va afg'onlarning oldingi shuhratini qaytarish edi. U o'z she'rlarida bu fakt haqida gapirib o'tadi va afg'onlarga maqol orqali murojaat qiladi: “Erkak dushmanlari bilan yarashmaguncha na uxlay oladi, na ovqatlana oladi va na dam oladi.”<sup>3</sup> U amaliy yo'lini quyidagicha ko'rsatadi:

“Agar afg'on boshqa bir narsa haqida o'ylasa u bilimsiz johil bo'ladi. Biror bir so'zsiz hech qanday muammo hal bo'lmaydi.”<sup>4</sup> O'ylaymanki quyidagi ikkilik uning kuchli noroziligini ko'rsatib bera oladi (muallif): “Mening yagona maqsadim o'z niyatimga yetishishdir. Hattoki butun yo'lim qon bilan qoplansada.”<sup>5</sup> Xushholxon o'z tarafdorlari va boshqa pashtunlar orasidagi poraxo'rliklar, jinoyatlar va ixtiloflarni ko'rib, pashtunlarni johil, mol-dunyoni sevuvchi va hatto o'z otalariga qarshi bosh ko'tarishga ham tayyor xalq deb ataydi. U bu borada afg'onlar boburiylardan ustundirlar, qaniydi ular donolikda ham shunday bo'lsalar, afg'onlar hamma narsada boburiylardan ustundirlar, afsuski

---

<sup>1</sup> The Anthology of Khushal Khan Khatak. Dost Mohammad Kamiel printed in Peshawar. 1980. P. 92.

<sup>2</sup> The grief of Gonbat went out of my heart.

God gave me the joy of victory in Dolada.

Masoma Esmati. Khushal Khan's political campaign. Translated by: Abdul Salam Shayek. Pashto quarterly. Kabul, Afghanistan, 1980. P. 125.

<sup>3</sup> Until he doesn't make even with enemies,

Man can have no sleep, no food or rest.

Masoma Esmati. Khushal Khan's political campaign. Translated by: Abdul Salam Shayek. Pashto quarterly. Kabul, Afghanistan, 1980. P. 126.

<sup>4</sup> If a Pashtun thinks of something else he'd be ignorant.

Without a word no problem could be solved.

Masoma Esmati. Khushal Khan's political campaign. Translated by: Abdul Salam Shayek. Pashto quarterly. Kabul, Afghanistan, 1980. P. 126.

<sup>5</sup> The Anthology of Khushal Khan Khatak. Dost Mohammad Kamiel printed in Peshawar. 1980. P. 93.

ularning orasida birlik yo'q deb aytadi.<sup>1</sup> Boshqa joyda esa agar afg'onlar birlashganlarida men boburiylarning kiyim – kechaklarini yirtib tashlay olgan bo'lar edim deb aytadi.<sup>2</sup> U o'z hasratlarini mana bunday izohlaydi: “Agar men biror joydan jasur inson topsam, u mening orzularimni ro'yobga chiqara oladi. Agar afg'onlar birlashishga kuch topa olsalar, bu qari Xushhol yana yosharadi.”<sup>3</sup> U chuqur qayg'uda men qilichimni himoya qilish uchun oldim. Afg'onlar sha'ni. Men Xushholxon Xattak o'z davrimning qadr – qimmat himoyachisiman. Yoki hech qanday muammo qilichsiz hal bo'lmaydi deb aytadi.<sup>4</sup> Baxtga qarshi Xushholxonning bu orzusi ushalmadi. U na atrofiga jasur insonlarni to'play oldi va na boburiylarning aldov va hiylalariga aldanmaslik uchun ogoh etilgan pashtunlarni yarata oldi. Shu tariqa ular dushmanlariga qarshi birlashishlari va o'z ozodliklari uchun kurashishlari mumkin edi. Xushholxonning uzoq kurashlarida nafaqat boburiylar hukumatining totalitar va mustamlakachilik maqasatlari, balki ijtimoiy fikr – mulohazalari, boburiylarning hiylalari orqali vujudga kelgan muammolar ham o'z aksini topgan. Bundan tashqari bir nechta bu kurashlarga zid bo'lgan nomuvofiq ijtimoiy fikrlar ham aks etgan. Yana fitnalar, zulm, ommaviy qamoqqa olishlar va hattoki feodal hukumat va ularning qo'g'irchoqlari tomonidan

---

<sup>1</sup> Pashtuns are superior to Moghols in swordsmanship,

I wish they were so in wisdom too.

Pashtuns are better than Moghols in everything,

Pity there is no unity among them.

Masoma Esmati. Khushal Khan's political campaign. Translated by: Abdul Salam Shayek. Pashto quarterly. Kabul, Afghanistan, 1980. P. 127.

<sup>2</sup> If the Pashtuns were united,

I will able to tear the garment of Moghols.

The Anthology of Khushal Khan Khatak. Dost Mohammad Kamiel printed in Peshawar. 1980. P.93.

<sup>3</sup> If I find somewhere a brave man,

He can make my wishes com true.

If Pashtuns find ability to unite,

This old Khushal will become young again.

Masoma Esmati. Khushal Khan's political campaign. Translated by: Abdul Salam Shayek. Pashto quarterly. Kabul, Afghanistan, 1980. P. 127.

<sup>4</sup> I have taken my sword to defend.

The honor of Pashtuns.

I am, Khushal Khatak, the honor defender of my time.

Or:

If a Pashtun thinks of another thing he would be ignorant

No problem could be solved without a sword.

Masoma Esmati. Khushal Khan's political campaign. Translated by: Abdul Salam Shayek. Pashto quarterly. Kabul, Afghanistan, 1980. P. 127.

ko'plab insonlarning qatag'on qilinishi uning katta antalogiyasida o'z aksini topgan va bu antalogiyaning ko'p qismlarida ularni bot – bot eslatib o'tadi. Boburiylarning barcha hujumkor harakatlari borasida o'zining cheksiz nafratini bildiradi. Biz misol tariqasida yuqorida aytib o'tilgan mavzu bo'yicha bu antalogiyadan bir nechta misol keltirib o'tamiz:

- Filni egari bilan yengiga yashirgan bunday o'g'rilar dunyoning hamma burchagida topiladi;

- Uning mingta durli tasbehi bor va dinda eng dono bo'lish uchun o'zini o'ylab qalin kitoblar o'qiydi. U mantiq, til san'atini o'rganadi, mulohazali holatlar ustida ishlaydi va farmonlar chiqaradi. Ammo u aslida ashshakdek ahmoq;

- U og'zida kalima qaytaradi, duolar o'qiydi, Ramazon oyida ro'za tutadi. Aslida esa u kofir;

- U shayx bo'lishga tirishadi ammo shaytondan yomon;

- Bu yerda bunday darveshlar tomonidan ifloslangan joy bitta emas. Shu kunlarda hamma yerda shayxlar ko'p. Avrngzeb ularning barchasi uchun yaxshi misol;

- Agar u Ka'baga borsa hammasi yaxshi. Ammo u butun yo'lida pulning ortidan ketadi.<sup>1</sup>

U dushmanlarga xizmat qilib mansabga intilgan va o'z akalarini o'ldirish uchun xiyonat qilgan xonlar va yer egalari haqida quyidagicha mazmunda so'z yuritadi:

“Xonlar va zamindorlar, ular Hindiston atrofida sayohat qiladilar. Ular jabrdiydalarning go'shtlari va suyaklarini yeydilar. Men bilganimdek ularning barchasi yirtqich hayvonlardir.”<sup>2</sup> Yoki:

“U hukmronlik ortidan nodonlarcha chopadi va butun xalqqa tashvish keltiradi.”<sup>1</sup> Xushholxon zamindorlarni mana bunday tanqid qiladi:

---

<sup>1</sup>The Anthology of Khushal Khan Khatak. Dost Mohammad Kamiel printed in Peshawar. 1980. P.94.

<sup>2</sup> Those who are khans and lords,

They travel around in India here and there.

They eat the flesh and bones of the oppressed,

As far as I know all are fierce animals.

The Anthology of Khushal Khan Khatak. Dost Mohammad Kamiel printed in Peshawar. 1980. P.94.

“U uyida ancha boy ammo uning ko’zlari och. Maliklar xonlarga qaraganda ancha vijdotsiz. Ular o’z do’stlariga nisbatan yomon ishlar qiladilar va ularning dushmanlaridan pora oladilar.”<sup>2</sup> Xushholxon xonlarga murojaat qilib, shunday deydi:

“Puli va hayotini yo’qotishdan xavfsiramaydigan insonlardan tashqari hech kim hukmronlikka munosib emas. Uning hayolida hech narsa yo’q ammo iftixor va qadr – qimmat bor. U pul haqida qayg’urmaydi. Islom shiori.”<sup>3</sup> Xushholxon o’g’illari haqida ham quyidagicha fikrlar bildiradi:

“O’z tanamdan yaralgan o’g’illarimning barchasi ayyorona mening dushmanlarim bo’ldilar. Ular mening qalbimni ellik yoki oltmish marotaba yaraladilar. Ularning orasida ba’zilar mening asosiy dushmanimga aylandilar. Biri butun oilasi ayanchli holatda barbod bo’lgan Bahrom singari g’amgin va baxtsizdir. O’z otasiga qarshi urush boshlagan xasis inson barcha davrlarda badarg’a qilingan kishidir.”<sup>4</sup>

Xulosa o’rnida shuni aytish mumkinki, Xushholxon Xattak o’z kurashlarini umrining oxirgacha davom ettirdi. Urushning so’nggi kunlarida u Emol Xon va Daryo Xon singari eng yaxshi do’stlarini yo’qotdi. Ularning o’limi Xushholxon

---

<sup>1</sup> He runs after lordship with no wisdom,  
And creates problems for all people.  
The Anthology of Khushal Khan Khatak. Dost Mohammad Kamiel printed in Peshawar. 1980. P.95.

<sup>2</sup> He is quite wealthy at home but his eyes are hungry  
Maliks are more corrupt than Khans.  
They do bad things to their friends,  
And accept bribes from their enemies.  
The Anthology of Khushal Khan Khatak. Dost Mohammad Kamiel printed in Peshawar. 1980. P.96.

<sup>3</sup> None deserves lordship except those,  
Who do not fear the lose of money and life.  
There is nothing in his mind but pride and honour.  
He doesn’t care about money.  
The motto of Islam.  
The Anthology of Khushal Khan Khatak. Dost Mohammad Kamiel printed in Peshawar. 1980. P.97.

<sup>4</sup> Slyly all of them became my enemies,  
Those who were created from my own body.  
They are wounds in my heart whether fifty or sixty,  
Some among them became my arch enemies.  
One becomes miserable and wretched like Bahram,  
From whose inauspicity the whole family got ruined.  
The fickle mean person is outcast all of the times,  
Who has started war on his father.  
Khushal Khan’s political campaign. Masoma Esmati. Translated by: Abdul Salam Shayek. Pashto quarterly. Kabul, Afghanistan, 1980. P. 128.

qalbini sindirdi. U ayniqsa qarigan chog'ida o'g'li Bahromxonning xatti – harakatlari tufayli ko'plab muammolarga uchradi. Turli qiyinchiliklar va muammolarga qaramay u buyuk va qudratli shaxsiyati egasi sifatida afg'on xalqining milliy iftixorini himoya qilishni, ularni ozodlik sari yetaklashni o'z zimmasiga oldi. U hayotining so'nggi kunlarini quyidagicha tasvirlaydi:

“Emol Xon va Daryo Xon – ikkisi ham ketdi. Endi esa boburiylarga qarshilik qilish uchun faqatgina Xushholxon qoldi. Emol Xon va Daryo Xon – ikkisi ham sharaf bilan vafot etdi. Ularsiz mening hayotim g'am – anduhda o'tmoqda.”<sup>1</sup> O'zi haqida esa bu dunyoda barcha g'am – anduhlar uchun yetarlicha joy bor. Menga keng qalb bergani uchun Yaratganga shukr. Agar kimdir og'riq to'la yurakni qidirayotgan bo'lsa, o'z yaqinlari tomonidan yo'q qilinayotgan Xushholxonni topadi deb aytadi. Xushholxon quyidagicha vasiyat qilgan edi:

“Mening jasadimni qabrimga boburiylarning soyasi ham tushmaydigan va boburiylar qo'shinlarining qadami yetmagan qabristonga dafn eting!”<sup>2</sup>

Afg'on xalqining sevimli qahramoni Xushholxon Xattak hijriy 1155 – yilda (mil. 1691 - yilda) dard, alam, iztirobda olamdan o'tdi. Ammo uning milliy iftixor va vatanparlik tuyg'ulari bilan yo'g'rilgan qo'shiqlari hali – hanuz ozodlikni sevuvchi insonlar tomonidan tinglanmoqda va qo'shiq qilib kuyga solinmoqda. U o'zi aytganidek: agar hozir hech kim Xushholxonning qadriga yetmasa, o'limidan so'ng butun dunyo uni yodga oladi. Xushholxon Xattakning ijodida ham roshaniylarning ta'siri yaqqol sezilib turardi. U ham xuddi Boyazid Ansoriy va boshqa roshaniy shoirlar singari o'z she'rlarida o'sha davrdagi shohlar, xonlarning nohaqliklarini, yovuzliklarini qo'rqmay tanqid ostiga oldi. Hukmdorlar taklif etgan poralar va turli yuqori mansablarga sotilmadi va o'z maqsadi yo'lidan og'ishmay dadil bordi. U mana shunday qo'rqmas shaxsiyati bilan afg'on xalqining qalbidan

---

<sup>1</sup> Khushal Khan's political campaign. Masoma Esmati. Translated by: Abdul Salam Shayek. Pashto quarterly. Kabul, Afghanistan, 1980. P. 128.

<sup>2</sup> Bury my body in such a place, where Moghol's shadow never comes on my grave and where no pace of Moghol cavallery falls on the graveyard.

Khushal Khan's political campaign. Masoma Esmati. Translated by: Abdul Salam Shayek. Pashto quarterly. Kabul, Afghanistan, 1980. P. 129.

chuqur o'rin egalladi. Xushholxon Xattak ham xuddi Boyazid Ansoriy singari o'z xalqining sha'ni, qadr – qimmatini uchun kurashdi, ularni himoya qilishni o'zining eng oliy maqsadi deb bildi. Ammo barcha davrlarda bo'lgani singari bu davrda ham unga qarshi chiquvchilar bore di. Xattoki Xushholxonning yaqin qarindoshlari ham unga qarshi bosh ko'ardilar. Chunki ularning ko'zlari hukmdorlar tomonidan taqdim etilgan “hadyalar” bilan bog'lab tashlangan edi. Natijada Xushholxon uchun turli muammolar tug'ildi. Shunga qaramay u xalqning aksariyat qismini birlashtirdi va ular ham ozod bo'lishga, o'z yeri va mol – mulkiga ega bo'lishga haqli ekanliklariga ishonтира oldi. Xushholxonning qalbini o'z o'g'li va qarindosharining xiyonatlari mudom qiynab kelardi. Lekin u vatan ozodligi yo'lida o'g'liga ham qarshi chiqdi. Xushholxonning sadoqatli do'stlari Emol Xon va Daryo Xonlar umrlarining oxirigacha uning yonida bo'ldilar. Bu kurashlarning oxirida ularni o'lim kutayotganini bilsalarda maqsadlaridan qaytmadilar, afg'on xalqiga azob berayotgan ajnabiy hukmdorlarga qarshi kurashishni bir daqiqa bo'lsada to'xtatmadilar. bu shaxslar haqiqiy ma'nodagi afg'on xalqining qahramonlaridir. Xushholxon Kobul hokimi Saidmir Xavofining o'rinbosarlik haqidagi taklifini keskin rad etdi. Chunki uni hech qachon mansab qiziqmagan. Uning bunday “himmati”ga Xushholxon o'z antologiyasida do'stlar madadidan umid bo'lmagan paytda dushmandan qanday qilib najot kutish mumkin deya kinoyali javob yozadi. Bu jummalarni o'qib Xushholxon nafaqat buyuk harbiy yo'l boshchi, balki buyuk so'z ustasi bo'lganligiga guvoh bo'lamiz.

## XULOSA

Men ushbu mavzuni o'rganib chiqib shunday xulosaga keldimki, roshaniylar harakati afg'on xalqi va jamiyati uchun suv va havodek zarur edi. Chunki o'sha paytda xalq o'z haq – huquqlarini bilmas, xalqning ilmiy salohiyati nihoyat darajada past, ajnabiy hukmdorlar qo'l ostida azoblanib yashashga majbur edi. Ularni mana shunday kurashga chorlash uchun kuchli rahbar kerak edi. Aynan Boyazid Ansoriy mana shu mas'uliyatni o'z zimmasiga oldi. U xalq ongiga adabiyot orqali ta'sir ko'rsatish yo'lini tanladi. Afg'on jamiyatini o'zining kuchli g'oyalari orqali birlashishga, ilm – ma'rifatli bo'lishga, o'qish – yozishni o'rganishga, o'z haq – huquqi uchun kurashishga, poralar va yuqori martabalarga sotilgan diniy rahnamolar va xonlarga ergashmay, ularga qarshi kurashishga da'vat etdi. Boyazid Ansoriy jamiyat a'zolari qanchalik ilmi, ma'rifatli bo'lsa, mana shu jamiyat gullab – yashnashi va yuksalishini juda yaxshi bilardi. U o'zi uchun mulkiy tenglik, birodarlik singari ijobiy g'oyalarni asos qilib oldi. Boyazid Ansoriy o'z g'oyalarini yagona kitob holiga keltirdi va uni “Xayr ul - bayon” deb nomladi. Pir roshan nomi unga bekorga berilmagan edi. Chunki u haqiqatdan ham afg'on jamiyatiga ziyo olib kirgan, ularga ma'rifat, savod ulashgan shaxs edi. Uning g'oyalarining xalq tomonidan qo'llab – quvvatlanishining sababi ham aynan shunda. Ammo barcha davrlarda bo'lgani singari bu davrda ham roshaniylarga qarshi kuchlar paydo bo'ldi. Ulardan biri Oxund Darvoza edi. U izchil islom tarafdori bo'lib, Boyazid Ansoriyning barcha g'oyalarini qattiq qoralagan. Xalqning ko'nglida unga nisbatan shubha uyg'otishga harakat qilgan. Uni xattoki xudosizlikda ayblab, kitoblarini yoqib yuborishni taklif etgan. O'zining “Tazkirat al – abror va – al ashror” asarida Boyazidni la'nati deyishgacha borgan. Lekin baribir roshaniylar harakati afg'on jamiyatiga o'zining sezilarli ta'sirini ko'rsatmay qolmadi. Buni yuqorida tilga olingan roshaniylar adabiyot maktabidan yetishib chiqqan yetuk shoirlar siymosida ko'rishimiz mumkin. Ular ham bevosita Pir roshanning izdoshlari bo'lib, keyingi davrlarda ham uning g'oyalarini targ'ib etdilar, xalqqa ma'rifat ulashishda davom etdilar.

Boyazid Ansoriy o'ziga to'q obro'li xonadondan bo'lsada uning bolaligi turli qiyinchiliklar va qiynoqlarda o'tdi. O'gay ona qo'lida ulg'aygan Boyazid nafaqat o'zini, balki butun afg'on xalqini o'zi yashab turgan nohaqliklarga to'lib – toshgan jamiyatdan qutqaruvchi piri izlaydi. Ammo bunday inson hali bu jamiyatd yo'q edi. U o'z oilasi misolida butun boshli jamiyatdagi nohaqliklarni ko'rdi. Bu davrda shayx unvoni merosiy bo'lib, otadan o'g'ilga o'tgan. Shaxsning ma'naviy dunyoqarashi hisobga olinmagan. O'z navbatida Boyazid bunga qarshi chiqadi va shayx unvoni merosiy emas deb aytadi. Bu esa diniy ulamolarning g'azabini keltiradi. Boyazid Ansoriyning otasi ham unga qarshi chiqadi va uni bunday fikrlardan qaytarishga harakat qiladi. Lekin u o'z fikrida sobit turdi va jamiyatdagi kamchiliklarni ayovsiz ravishda fosh etdi. Roshaniylar harakati jamiyat a'zolarining ko'pchilik qismini qamrab olsada, ammo baribir mag'lubiyatga uchradi. Chunki bu davrda afg'onlar ikki guruhga bo'linib qoldilar. Birinchi guruhga bu harakatni qo'llab – quvvatlovchi oddiy afg'on xalqini, ikkinchi guruhga esa o'z mol – mulki va mansabidan ayrilib qolishdan xavotirga tushgan “afg'on zodagonlari”ni kiritishimiz mumkin. Aynan mana shunday guruhga bo'linib qolishlar mening nazarimda afg'on xalqining turli qiynoq va azoblarda qolishlariga sabab bo'ldi. Chunki jamiyat yaxlit bo'lgandagina u barqaror bo'ladi va rivojlanadi.

XVIII asrda roshaniylar harakatini davom ettirgan Xushholxon Xattakni Afg'onistonning milliy qahramoni deb atashimiz mumkin. U o'z kurashlariga roshaniylarning g'oyalarini asos qilib olgan edi. U ham she'rlarida jamiyatdagi kamchiliklar, nohaqliklarni qattiq tanqid ostiga oldi. Qabilalarni atayin bir – biriga gij – gijlash maqsadida uyushtirilgan fitnalarni o'z she'rlarida ayovsiz fosh etdi. Xalqni bunday hiyla – nayranglarga uchmaslikka da'vat etdi. Xattoki shohlar ham uning tanqidlaridan chetda qolishmadi. Buni yuqorida keltirilgan misollarda ko'rishimiz mumkin. Ammo uning o'g'li mana shunday nayranglar qurboniga aylandi va xatto o'z otasiga qarshi qurol ko'tarishgacha bordi. Xushholxon Xattak shuncha qiyinchiliklarga qaramay o'z maqsadiga erisha oldi va afg'on xalqini birlashtirdi. Barchamizga ma'lumki 1747 – yilda mustaqil Afg'oniston davlati

tashkil topdi. Mustaqil afg'on davlati asoschisi Ahmadshoh Durroniy ham roshaniylar va Xushholxon Xattak g'oyalari ta'sirida ulg'aydi. O'zi ham pushtu tilida go'zal she'rlar yaratdi. Ahmadshohni ham bevosita roshaniylar maktabining davomchisi deb atash mumkin. Ko'rib turganimizdek roshaniylar harakati butun boshli Afg'oniston davlatining tashkil topishiga ham beqiyos hissa qo'shdi. Roshaniylar harakatining namoyondalarini chin ma'noda Afg'onistonning milliy qahramonlari deb atashimiz mumkin. Hozirgi kunda ham afg'on shoirlarining aksariyat qismi Boyazid Ansoriy asos solgan qofiyali nasr yo'nalishida ijod etmoqdalar. Bu esa roshaniylar adabiyot maktabining ta'siri o'z kuchini hali hanuz yo'qotmaganligini ko'rsatadi. Barchamizga ma'lumki Afg'oniston qulay geografik hududda joylashgan mintaqa hisoblanadi. Uzoq o'tmishdan buyon bu mintaqada turli davlatlarning manfaatlari to'qnash kelganiga va bu jarayon hozirda ham davom etib kelayotganiga guvohmiz. Ammo ishonchim komilki Afg'onistonning Boyazid Ansoriy, Xushholxon Xattak, Mirzaxon Ansoriy, Arzoniylar Xeshki, Ahmadshoh Durroniy singari buyuk shoir va harbiy yo'l boshchilarining ozodlik g'oyalari bilan sug'orilgan afg'on xalqini hech qaysi buyuk davlat bosib ololmaydi.

## **Foydalanilgan adabiyotlar**

### **I. O'zbekiston Respublikasi prezidenti I.A.Karimov asarlari**

1. I.A.Karimov. Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz. Toshkent, 2000.
2. I.A.Karimov. Tinchlik va xavfsizligimiz – o'z kuch – qudratimizga, hamjihatligimizga va qat'iy irodamizga bog'liq. Toshkent, 2004.
3. I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent, 2008.

### **II. Rus tilidagi adabiyotlar**

4. Рейснер И.М. К вопросу о складывании афганской нации. Вопросы истории. М., 1949 №7.
5. Асланов М.Г. Афганская литература. БСЭ. 2-е изд. М., 1950.
6. Антонова К.А. Религиозная политика Акбара (К истории индо-мусульманских разногласий). М., 1950.
7. Асланов М.Г. Отражение классовой борьбы в афганской литературе XVI – XVII вв. М., 1951.
8. Антонова К.А. Очерки общественных отношений и политического строя могольской Индии времен Акбара (1556-1605 гг.). М., 1952.
9. Рейснер И.М. Развитие феодализма и образование государство у афганцев. М., 1954.
10. Асланов М.Г. Народное движение рошани и его отражение в афганской литературе 16-17 в.в. «Советское востоковедение» М., 1955.
11. Асланов М.Г. Афганцы, язык и духовная культура. Народы Передней Азии. М., 1957.
12. Пикулин М.Г. Развитие национальной экономики и культуры Афганистана. Ташкент, 1961.

13. Массон В.М., Ромодин В.А. История Афганистана. 2-е том. М., 1965.
14. А.Бабахаджаев. Очерки по истории советско-афганских отношений. Ташкент, 1970 г.
15. Давыдов С., Черниховская Н., Афганистан. Москва, 1973.
16. Маннанов А.М. Баязид Ансари, Мирзахан Ансари, Мухаммад Хотак. Основные произведения иностранной художественной литературы. М., 1975.
17. Маннанов А.М. “Хайр-уль-Баян” Баязида Ансари. Классическая литература Востока. Труды ТашГУ, 1981.
18. Ганковский Ю.В. История Афганистана с древнейших времен до наших дней. М., 1982.
19. Ромодин В.А. Очерки истории и истории культуры Афганистана. М., 1983.
20. Актуальные проблемы Афганской революции. Под ред. М.Р. Аруновой и др. Москва, 1984.
21. Маннанов А.М. Основные жанры рошанийской поэзии. Т., 1986.
22. Ислам и проблемы национализма в странах Ближнего и Среднего Востока. Сборник Статей. М., 1986.
23. Губар М.Г.М. Афганистан на пути истории. М., «Наука» 1987.
24. История Древнего Востока, ч.1 под ред. Бонгард – Левина. М., 1988.
25. Ю.В.Босин. Национальный состав Афганистана. М., 1988.
26. А.Д.Давидов. Афганистан. Справочник. М., 2000.
27. С.А.Шумов., А.Р.Андреев. История Афганистана. М., 2002.
28. А.А.Арсланова. Семейно – брачные обряды пуштунов Афганистана. Казан, 2002.
29. А.Е.Снесарев. Афганистан. М., 2003.

- 30.Хамидова К.К. «Хаяти афган» М.Хатака – источник по истории пуштунских племен. Востоковедение, Т., 2004.
- 31.Хамидова К.К. Особенности развития стран Среднего Востока. Т., 2004.
- 32.Хамидова К.К. «Пата – хазана» М. Хатака ценный источник по истории пуштунских племен. Востоковедение, Т., 2004.
- 33.Маннанов А.М. Рошанийская литература. Ташкент, 2006.

### **III. Ingliz tilidagi adabiyotlar**

- 34.Leyden J. On the Roshenian sect and its founder Bayezid Ansari. Asiatic Researches. London, 1812.
- 35.Raverty H.G. Selections from the poetry of the Afghans from the 16th to the 19th century. London, 1868.
- 36.Dharma Bhanu. The Roushania movement and the Mughals. Islamic culture. Haiderabad, 1952.
- 37.Kaleem M.M. Pushto literature. The cultural heritage of Pakistan. Karachi, 1955.
- 38.Shafi M. Bayazid Ansari. London, 1960.
- 39.Rizvi S.A.A. Rawshaniyya movement. Kobul, Afghanistan, 1967.
- 40.Masoma Esmati. Khushal Khan Khattak's political campaign. Kabul, Afghanistan, 1980.
- 41.Dost Mohammad Kamiel. The anthology of Khushal Khan Khattak. Peshavar, 1980.
- 42.Afghanistan. A country study. Washington, 1980.
- 43.Sykes P. M. History of Afghanistan. London, 1982.
- 44.Ghobar M.G.M. Afghanistan in the Course of History. Herndon, 2001.
- 45.Uiliam Erskin. Bobur in India. Tashkent, 2003.

#### **IV. Pushtu va dariy tilidagi adabiyotlar**

- 46.M.G.M.Gubar. Ahmadshoh babayi afg'on. M., 1957.
- 47.Ali Muhammad Muhlis. Holnoma. Kabul, Afghanistan, 1980.
- 48.Xushholxon Xattak. Svadnoma. Kabul,Afghanista, 1982.
- 49.Afzalxan Xattak. Dastarnoma. Kabul, Afghanistan, 1982.
- 50.Foniy Kashmiriy. Dabiston al – mazohib. Kabul, Afghanistan, 1982.
- 51.Oxund Darvoza. Tazkirat al abror va – l ashror. Peshavar,1985.
- 52.Nazarov B. Holnomayi Boyazid Rushon. T., Sharqshunoslik, 1996.
- 53.Muhammad Ibrohim Atoyi. Negohi muxtasar ba torixe maosere Afg'oneston. Kobul, 2010.

#### **V. Vaqtli matbuot va jurnallar**

- 54.Solnoma-ye Kobul. Kobul, 1935.
- 55.Angor. 10.03.1951.
- 56.Sado-ye avom. 27.03.1968.
- 57.Pashto quarterly. Kabul, Afghanistan, 1980.
- 58.Пашто. Кабул, 1981.
- 59.Sharq mash'ali. Toshkent, 1996.
- 60.Xurriyat. Toshkent, 31 – may 6 – iyun 2010.

#### **VI. Internet saytlari**


- 61.[www.google.com](http://www.google.com)
- 62.[www.wikipedia.org](http://www.wikipedia.org)
- 63.[www.wikimedia.org](http://www.wikimedia.org)
- 64.[www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
- 65.[www.afghanistan.ru](http://www.afghanistan.ru)
- 66.[www.farsi.ru](http://www.farsi.ru)
- 67.[www.bbc.co.uk](http://www.bbc.co.uk)
- 68.[www.ancienttimes.org](http://www.ancienttimes.org)
- 69.[www.scientist.google.com](http://www.scientist.google.com)
- 70.[www.afghanland.com](http://www.afghanland.com)

## Illovalar

### Boyazid Ansoriy (Pir roshan)




Oliy Hazrat Boyazid Ansoriy



**Xushholxon Xattak**







Из рукописи «Хайр ал-байана», хранящейся в ФРГ.

کتاب و این لم تظنوا فایا بختی سبباً الیه سیاحت وی قرآن  
بیب بالانقران واققران شیخ و لمیدی صاحب السلام

بای کتابت که فرموده قرآن  
و قرآن لغت بکن اورا

او بزودا وین بیب ککنا مان ترور بککنا عذاب و

و اینان که بوقیاست و او را و عذاب کما زمان بون

و کتابت این مدد نزل کتابت بلحون و این لدرین جملهاست

کتابت شقایق بغیر سیاحتی قرآن ایجاب اند

بسیب العفیان و مدخله الایات ان را حره

بجلیب خسان اوهی و لمیدی حمرت او خایب

واکلام

بککنا عذاب

بای کتابت که فرموده قرآن  
و قرآن لغت بکن اورا  
بککنا عذاب  
بککنا عذاب  
بککنا عذاب

بککنا عذاب  
بککنا عذاب  
بککنا عذاب  
بککنا عذاب

Последняя страница рукописи «Хайр ал-байна» из ФРГ.


دعنايت له صولي عوزم	دعنايت مكنته قنجي د
ز به طمع له مولي كزم	له بل چا طمع كجي د
حق په كافي كني وركړي	سبز پاني وحمچيد
پر دآر به هغه يون كا	چه ئي بند د نوښ خري د
چه دزړه طواف ئي وكه	راست لار د هغه حاجي د
انلني د دل له باغ	دا پنبته وينا وچيد

وله

د فقير پنبته حنبر	لكه سپين مرغلز
د بل چا صفت به نه كه	كل صفت كه له قا در
قادري دي بي شريك	ته اول ته آخر
محيط شوي په كليات دي	له باطن ته بظاهر
يو احد دي دووم نه شته	دارنيا وينا دمتر
دارنيا وينا ترخه د	كه طالب ئي وي بغر
فقير وائي په رموز كني	وينا نه واي زړه ور
دا اسراري پوشيده كر	برعنه مه واي له ستر

*Из рукописи дивана Арзани, хранящейся в Британском музее.*

Mirzaxon Ansoriyning 1700 – yilda ko'chirilgan qo'lyozma devonining  
birinchi sahifasidan nusxa



Первая страница Лондонской рукописи дивана Мирзā-хāна Ансārī , перетисанная в 1700 году

د صورت کله قلم دروغ با کس نه  
بخره دوست کی کیندی سهری ده که  
د صورت عالم ذره غونذی صغیر و  
د صورت عالم بن باد امیر و  
کل عالم مثل کوه و ار مولی میر و  
بنه مولانا مند سروان زنده بعیر و  
چو سروان پس روان داوشن میر و  
د عاجزی شتر سروان پس میر و  
د جمال جلال صفتی دستگیر و  
ببین کوه به نایه جن سرور و انبی پرو  
و کوه بهشت بود از بدنت دیدار هیچ نداشت مثل خوشن لذت آواز  
نور و در و آید صفت نغمه شیار و وضطراری کوبه  
منه زهره بودید پدید سروان  
همینیز بهشت و سینه دوست نش  
چو شوق ای که بیدار منته نش

Из рукописи дивана 'Али Мухаммада Мухлиса,  
хранящейся в Британском музее.

دینش بر آید و با او بیاید  
 بی نهایت که لذت در لعلش موجود  
 و عادت راحت دیدار یا بینما و از  
 مستی نشین و دو کونیه لذت  
 چو حق پور ناخبر نومی با و کس  
 که ترک نکند ما کلبه وار دنده عرض  
 چه بپذیرد کینه خاطر حق پور پیش  
 چو حق بیغیر اختیار نومی حق  
 چه کله شکوه لغز که پزیه کینه  
 چو کفر اختیار نومی خوش بر آید  
 عاقلان کسان بخندی بچکان کینه  
 چه نوسس هوای ترک که فیض دی  
 چه پر نوسس فتح پا بر نه فقیر کینه  
 ناامیدی رحمت مینماید  
 در بندمت بیل و جابل و در صفت عالم و عالم میفرمایند

Из рукописи дивана 'Али Мухаммада Мухлиса,  
 хранящейся в Британском музее.

پیر و سنکیر قدس سره الهام که در خواب بروی نازل شده بود گفت  
یا محمد از سبب توحی توحی در خواب بر من این الهام نازل کرد و اگر  
تو بعتی آری و بطن عت من کار کنی خدا تعالی کنانان تو بیدار  
و از تاریکی سویی روشنی درانی محمد رحمة الله علیه گفت الهام در  
المعالین اما یا بایزید قبیل من در شہال متوقفاست اگر بفرمائی  
یا قبیل را یکی جمع سازم و در اینجا من نیز خلوت نمیشنم پیر  
قدس سره فرمود یا محمد تا در حضور من کجوبت نشینی منفعت  
نیابی الحال برو قبیل خود را در زمستان یکی بنشان بعده بسیار  
محمد رحمة الله علیه سخن پیر و سنکیر قبول نمود بطرف قبیلہ روان شد  
چون قبیلہ در شہال رسید در میان دور و کیوی حدوت بود  
محمد رحمة الله علیه اندیشه کرد که مباد در میان ایشان جنگ شود  
و من در میان ایشان صنایع شوم و در شرک بلبید بمیرم محمد رحمة الله  
علیه خواست که ازین ولایت یعنی از ملک شہال جاء دیگر  
برم چون میون نام پیر محمد رحمة الله علیه بیماری داشت نشی  
تدویشیر مادر نخورده بود لاجرم جایی دیگر رفتن نتوانست

Из рукописи «Халнāма».